

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix va huquqshunoslik fakulteti

Kafedra: Davlat huquqi va boshqaruv

BITIRUV MUTAXASSISLIK ISHI

Mavzu: Chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va javobgarlikga tortilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilishda konsullik xizmatining o'rni

Ilmiy rahbar: yu.f.n., Mo'minov A.R.

Bitiruvchi: 4-kurs talabasi Ro'zmetov B.

NUKUS-2012

Mundarija

Kirish	3
 I BOB. KONSULLIK HUQUQI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSI	
1.1. Konsullik huquqi tushunchasi va uning manbalari.....	5
1.2. Konsullik vazifalari	8
1.3. O'zbekiston Respublikasining konsullik xizmati	12
1.4. O'zbekiston Respublikasining konsullik masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlari va normativ-huquqiy aktlari	21
 II. BOB. CHET ELDAGI FUQAROLAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA KONSULLIK XIZMATINING O'RNI	
2.1. Konsullik ro'yxatiga olish va Pasportni rasmiylashtirish.....	27
2.2. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari	39
2.3. Notarial harakatlar va konsullik hujjatlarini qonunlashtirish masalalari.....	48
2.4. Javobgarlikka tortilganlarga konsulning ko'rsatadigan huquqiy yordami	58
 XULOSA	60
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	64

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida mustaqil tashqi siyosat yurita boshlashi uning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, biz xalqaro aloqalarda quyidagi yo'nalishni tanladik: "Ozodligimizni, iqtisodiy mustaqilligimizni yo'qotmasdan, kim bilan, qaysi davlat bilan munosabat o'rnatmaylik, xalqimizning izzatini joyiga qo'yadigan, uning tengligini ta'minlaydigan yo'lni tanlashimiz kerak bo'ladi"¹. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining siyosiy, iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslarining manfaatlarini himoya qilish va ularga huquqiy yordam ko'rsatish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz inson manfaatlarini, h'uquq va erkinliklarini yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik h'uquqiy davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yulidan izchil rivojlanib bormoqda².

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi jahon hamjamiyati davlatlari bilan O'zbekistonning turli sohalaridagi o'zaro aloqalarini rivojlantirish, suverenligini yanada mustahkamlash hamda xalqning turmush tarzini yuksaltirish kabi maqsadlarda ular bilan diplomatik va konsullik aloqalari o'rnatishi uchun keng imkoniyatlar

¹ Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Каримов И. А..Т. 1 – Т. : Ўзбекистон, 1996, 3-бет.

² Қаранг: И.Каримовнинг 2011 йил асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришининг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил ватанимиз тараққиёти Янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Т.: Oqituvchi, НМИУ, 2012 б.3.

ochib berdi. Bugungi kunda globallashuv jaroyanida O'zbekiston fuqarolari, tashkilot va korxonalarining chet el fuqarolari, korxonalar va firmalari bilan iqtisod, savdo, madaniyat, turizm, fan va shu kabi hayotning turli jabhalaridagi munosabatlari kengaymoqda. Bularning barchasi o'z navbatida chet elga ketuvchi O'zbekiston fuqarolarining sonini oshirmoqda, shu bilan birga O'zbekistonga keluvchi chet el fuqarolarining soni ham ortib bormoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet el elementlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy va nomulkiy munosabatlarini ham tobora rivojlantirmoqda.

Natijada xorijiy davlatlarga doimiy yashashga, vaqtinchalik o'qishga, ishga, sayohatga va xizmat safarlariga borayotgan, shu bilan birga jinoyat sodir etganlikda ayblanib hibsga olingan va sudlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy manfaatlarini himoyasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. XIX asrning oxiri Evropa va Amerika mamlakatlari o'rtasida konsullik konvensiyalarining tuzulishi davri sifatida tavsiflanadi. Tez orada Germaniya, Italiya va Fransiya davlatlarida xalqaro shartnoma va qonunchilikka oid manbalarning ahamiyatli darajada to'planishi konsullik masalalariga oid ko'plab adabiyotlarning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Bu davlatlarda, va dastlab xalqaro huquq konsepsiyasining "davlatning ichki qonunchiligi" darajasi sifatida ta'siri katta bo'lgan Germaniyada "konsullik huquqi"ga oid adabiyotlar vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasida bu sohani o'rganish mustaqillikdan so'ng boshlandi. Mavzu faqat ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalaridagi bir-ikki paragraf yoki statistik ma'lumotlar bilan chegaralanadi. Shu sababli bu muammo yetarli darajada o'rganilmagan va bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlari kamroq.

O'zbekiston Respublikasining konsullik sohasini rivojlantirish va tartibga solish muammosining turli jihatlarini asosan xalqaro huquqshunos olimlarning asarlarida yoritib berilgan bo'lib, ayni shu mualliflar konsullik xizmati masalalari tahliliga bag'ishlangan ayrim maqolalarni ham e'lon qilganlar.

I BOB. KONSULLIK HUQUQI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSI

1.1. Konsullik huquqi tushunchasi va uning manbalari

XX asrning o'rtlariga kelib konsullik huquqi xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i sifatida shakllana boshladi. Xalqaro huquq tizimining boshqa tarmoqlaridagi kabi konsullik huquqi ham xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga tayanadi. Konsullik huquqi bevosita diplomatik huquq bilan bog'liq. Ammo ular o'rtasida farq mavjud va ularning har ikkisi xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarning ayrim jabxalarida konsullik huquqi xalqaro xususiy huquq va davlat qonunchiligi bilan bog'liq¹.

Konsullik huquqini davlatlar o'rtasida konsullik munosabatlarini belgilab beradigan hamda konsullik muassasalarini ochish tartibini, konsullik funksiyalarini, konsullik muassasalari va ularning xodimlariga immunitetlar va imtiyozlarni tartibga soladigan prinsiplar va me'yorlarning yig'indisi deb ta'riflash mumkin. Konsullik huquqining predmeti xalqaro munosabat ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning konsullik aloqalari borasida rasmiy faoliyatining masalalarini tartibga solish hisoblanadi. Konsullik huquqi konsullik muassasasining hamda uning xodimlarining o'zi joylashgan davlatda faoliyati uchun huquqiy asos yaratadi, va konsullik funksiyalarining tegishli ravishda bajarilishiga yordam beradi, konsullik muassasasining o'ziga va uning xodimlariga immunitetlar va imtiyozlar shaklida tegishli yuridik kafolatlarni taqdim etadi.

¹ Международное право. Вылегжанин А.Н., Колосов Ю.М., Малеев Ю.Н., Колодкин Р.А.– М.:Высшее образование, Юрайд-Издайт, 2009. С. 555.

Konsullik huquqining asosiy manbalari xalqaro shartnoma va odat deb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xalqaro shartnoma - bu konsullik huquqining asosiy manbasi hisoblanadi, chunki unda xalqaro huquqning sub'yektlari ularning o'zaro huquqlari va majburiyatlari yuzasidan roziligi yozma ravishda eng aniq holda ifodalangan.

Konsullik huquqining muayyan, eng avvalo, shartnomaviy manbalari to'g'risida gapirganda, umumiy soni yuzlab hisoblangan ikki tomonlama konsullik konvensiyalarning ustuvor o'rnini aytib o'tish lozim.

Bu sohada umumiy turdagi ko'p tomonlama shartnoma 1963 yildagi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi hisoblanadi, u konsullik masalalari bo'yicha xalqaro huquq me'yorlarining kodifikatsiyasi va me'yorlarining progressiv rivojlanishini o'zida mujassam etgan. Konvensiya konsullik munosabatlarining barcha asosiy masalalarini: ularning barpo etilishi va konsullik muassasalarining ochilishi; konsullik funksiyalari; konsullik muassasalarining va ularning xodimlarining imtiyozlari va immunitetlari, shuningdek bir qator boshqa masalalarni tartibga soladi.

1963 yildagi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasini konsullik huquqining manbai sifatida ta'riflash uchun unda ko'zda tutilgan me'yorlar ularda ishtirok etuvchi davlatlar orasida amal qiladigan va konsullik masalalariga oid bo'lgan boshqa xalqaro bitimlarga ta'sir ko'rsatmasligi, hamda ularga uning qoidalarini tasdiqlaydigan, to'ldiradigan yoki kengaytiradigan bitimlarni tuzishga to'sqinlik qilmasligi haqidagi qoidasi jiddiy ahamiyatga ega. Shu bilan nafaqat Vena konvensiyasi kuchga kirgan paytiga kelib amal qilgan ikki tomonlama konsullik konvensiyalarning keng tarmog'i saqlab qolingan, balki keyinchalik ham bunday ikki tomonlama konvensiyalar va konsullik masalalari bo'yicha boshqa bitimlarni tuzish imkoniyati mustahkamlangan.

Konsullik faoliyati diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limlari tomonidan ham amalga oshirilgani uchun, konsullik huquqining manbai sifatida 1961-yildagi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi ham muayyan o'rin tutadi. Konsullik xodimlariga shuningdek 1973-yildagi Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularni jazolash to'g'risidagi Konvensiya taalluqli bo'ladi¹.

Konsullik maqomi va faoliyatining masalalariga tegishli bo'lgan qonunlar va boshqa milliy huquqiy hujjatlarning doirasi ham keng. Bu davlat ichki hujjatlari ikki tomonlama rol o'ynaydi: ular o'z konsullarining maqomi va faoliyatining davlat ichidagi turiga tegishli bo'lgan va odatda xalqaro darajada tartibga solinmaydigan jihatlarini tartibga soladi; ular shuningdek chet el konsullik muassasalari va ularning xodimlarining maqomi va faoliyatiga tegishli bo'lishi mumkin, masalan, ularning imtiyozlari va immunitetlari borasida (albatta, bular tegishli xalqaro me'yorlarga zid keladigan cheklanishlarni yaratmagan darajada). Konsullik huquqining milliy-huquqiy manbalari toifasiga konsullik ustavlari va shunga o'xshagan hujjatlar kiradi, masalan, 1996-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun kiradi. Konsullik huquqi manbalarining shu toifasiga fuqarolik, notariat va boshqa shu kabi masalalar to'g'risida bir qator qonunchilik hujjatlari kiradi.

Konsullik faoliyatini tartibga solishda konsullar tomonidan bir qator xalqaro tan olingan funksiyalarning bajarilishi konsulning o'zi joylashgan davlat qonunlariga rioya qilishi biln belgilab beriladigan holatlarda ham milliy huquq tartibga soluvchi o'rin tutadi. 1963-yildagi Vena konvensiyasi asosida, ikki tomonlama konsullik konvensiyalarida, agar konsulning tegishli harakati

¹ Международное право. Вылегжанин А.Н., Колосов Ю.М., Малеев Ю.Н., Колодкин Р.А. – М.: Высшее образование, Юрайд-Издайт, 2009. С. 557.

«O‘zi joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga» zid kelmaydigan yoki ular bilan taqiqlanmaydigan holda, konsulning bir qator funksiyalarni bajarish borasidagi huquqlari tan olinadi¹. Milliy huquq bu holda to‘ldirib turuvchi, lekin zarur bo‘lgan tartibga solish jihati sifatida yuzaga chiqadi.

Konsullik huquqining yuqorida tavsiflangan maxsus manbalarining mavjudligi konsullik manbalariga umuman xalqaro huquq qo‘llanmasligini bildirmaydi. Konsul tomonidan o‘zi joylashgan davlatda o‘zi ifoda etgan davlatning hamda uning fuqarolarining (jismoniy va yuridik shaxslarning) huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi «xalqaro huquqda yo‘l qo‘yiladigan doirada» amalga oshirilishi umume'tirof etilgan. 1963-yildagi Vena konvensiyasida ham shu haqda gapirilgan². Boshqacha aytganda, xalqaro huquq, va eng avvalo uning asosiy tamoyillari, konsullik huquqida muayyan manba sifatida yuzaga chiqqan holda, undan konsullik munosabatlarining sub'yektlari va ularning tashuvchilari, ya'ni konsullik mansabdor shaxslari uchun o‘z harakatlarida o‘zi joylashgan davlatda xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga amal qilish majburiyati yuzaga keladi.

Odat ham konsullik huquqining manbai sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. 1963 yildagi Vena konvensiyasi xalqaro odatdagi huquq me'yorlari uning qoidalarida ko‘zda tutilmagan masalalarni tartibga solishda davom etishiga asoslangan.

1.2. Konsullik vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi hamda konsullik joylashgan davlat ishtirokchi bo‘lgan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalarga, xalqaro taomillarga,

¹ Международное право. Вылегжанин А.Н., Колосов Ю.М., Малеев Ю.Н., Колодкин Р.А.– М.:Высшее образование, Юрайд-Издайт, 2009. С. 558.

² Международное право. Вылегжанин А.Н., Колосов Ю.М., Малеев Ю.Н., Колодкин Р.А.– М.:Высшее образование, Юрайд-Издайт, 2009. С. 557, 558.

O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustaviga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.¹

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonolari bo'lmagan davlatlarda konsulxona joylashgan davlatning roziligi bilan konsul zimmasiga diplomatik vazifalar ham yuklatilishi mumkin².

Konsullik vazifalari deganda, xalqaro shartnomalar, konsulxona joylashgan davlat va konsullik muassasasi ifoda etgan davlat qonunchiligida konsullik muassasasi boshlig'i hamda uning xodimlari tomonidan bajarilishi nazarda tutilgan harakatlar tushuniladi va bu konsullik vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) konsul konsulxona joylashgan davlatda o'zi ifoda etgan davlat va uning fuqarolarini (jismoniy va yuridik shaxslarni) xalqaro huquq bilan yo'l qo'yiladigan doirada himoya qilish;

b) konsul o'zi ifoda etgan davlat va konsulxona joylashgan davlat o'rtasida savdo, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarning rivojlanishiga ko'maklashish, shuningdek ular o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish;

c) konsulxona joylashgan davlatda savdo, iqtisodiy, madaniy va ilmiy hayotidagi sharoitlar va voqealarni barcha qonuniy yo'llar bilan aniqlash, ular haqida o'zi ifoda etgan davlat hukumatiga bildirish va manfaatdor shaxslarga ma'lumotlarni berish;

d) konsul o'zi ifoda etgan davlat fuqarolariga pasportlarni va yo'l hujjatlarini berish hamda o'zi ifoda etgan davlatga bormoqchi bo'lgan shaxslarga vizalar yoki tegishli hujjatlarni berish;

¹ Консульский Устав Республики Узбекистан. –Т.: Жахон. 1997.

² Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбидинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. – С. 120.

e) konsul o'zi ifoda etgan davlat fuqarolariga (jismoniy va yuridik shaxslariga) yordam ko'rsatish;

f) notarius, fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga oluvchi vazifalarini va boshqa shu kabi vazifalarni bajarish, shuningdek bu holda konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga hech nima zid kelmasligi sharti bilan ba'zi ma'muriy turdagi ba'zi vazifalarni bajarish;

g) konsulxona joylashgan davlat hududida "mortis causa" turida vorislik holatida o'zi ifoda etgan davlat fuqarolarining (jismoniy va yuridik shaxslarning) manfaatlarini o'zi joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga muvofiq himoya qilish;

h) konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va qoidalari bilan belgilangan doirada o'zi ifoda etgan davlatning fuqarolari bo'lgan voyaga yetmaganlar va boshqa to'liq layoqati bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ayniqsa bunday shaxslar ustidan biror-bir homiylik yoki vasiylik o'rnatilishi kerak bo'lgan hollarda;

i) konsulxona joylashgan davlatda qabul qilingan amaliyot va tartibga rioya qilgan holda o'zi ifoda etgan davlat fuqarolarini o'zi joylashgan davlatning sud va boshqa muassasalarida ifoda etish yoki tegishli ifoda etilishini ta'minlash, o'zi joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga muvofiq ushbu fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan dastlabki choralar to'g'risida farmoyishlarni olish maqsadida, agar o'zi bo'lmaganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ushbu fuqarolar o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni o'z vaqtida amalga oshira olmasalar;

j) amaldagi xalqaro bitimlarga muvofiq yoki, bunday bitimlar bo'lmaganda, o'zi joylashgan davlatning qonunlari va qoidalariga zid kelmaydigan boshqa har qanday tartibda o'zi ifoda etgan davlatning sudlari

uchun sud va sud bo'lmagan hujjatlarni berish, yoki sud topshiriqlarini ijro etish, yoki sudlar uchun ko'rsatmalarni olish topshiriqlarini ijro etish;

k) konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va qoidalarida ko'zda tutilgan o'zi ifoda etgan davlat millatiga ega bo'lgan kemalar, va shu davlatda ro'yxatga olingan samolyotlar yuzasidan, shuningdek ularning ekipajlari yuzasidan nazorat va inspeksiya qilish huquqlarini amalga oshirish;

l) mazkur moddaning "k" bandida aytib o'tilgan kemalar va samolyotlarga hamda ularning ekipajlariga yordam ko'rsatish, kemalarning suzishiga oid arizalarni qabul qilish, kema hujjatlarini ko'zdan kechirish va rasmiylashtirish va, o'zi joylashgan davlat hokimiyatining huquqlari uchun zarar yetkazmagan holda, yo'lda bo'lgan har qanday voqyealarni tergov qilish, va kapitan, komanda tarkibi va matroslar o'rtasida har qanday turdagi nizolarni hal qilish, chunki bu o'zi ifoda etgan davlatning qonunlari va qoidalari bilan ko'zda tutiladi.

m) konsul o'zi ifoda etgan davlat tomonidan konsullik muassasasiga yuklatilgan, konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va qoidalari bilan taqiqlanmaydigan, yoki bajarilishiga qarshi konsulxona joylashgan davlat e'tiroz bildirmaydigan, yoki o'zi ifoda etgan davlat va o'zi joylashgan davlatning o'rtasida amal qiluvchi xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish.

Konsullik mansabdor shaxsi alohidagi holatlarda, konsulxona joylashgan davlatning roziligi bilan, o'z konsullik okrugidan tashqarida o'z vazifalarini bajarishi mumkin. O'zi ifoda etgan davlat tegishli davlatlarni xabardor etganidan keyin, bir davlatda ochilgan konsullik muassasasiga boshqa davlatda konsullik funksiyalarni bajarishni, agar ushbu davlatlardan birortasi tomonidan aniq ifodalangan e'tiroz bildirilmagan bo'lsa, topshirishi mumkin. Konsulxona joylashgan davlatni tegishlicha xabardor etganidan keyin o'zi ifoda etgan

davlatning konsullik muassasasi, agar konsulxonaga joylashgan davlat e'tiroz bildirmasa, o'zi joylashgan davlatda uchinchi davlat nomidan konsulxonaga joylashgan davlatda konsullik funksiyalarini bajarishi mumkin.¹

1.3. O'zbekiston Respublikasining konsullik xizmati

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zining konsullik muassasalarini xorij davlatlarida ochishni boshlab, bu sohani takomillashtirib bordi. 1994 yilda O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan bir qator bitimlarni imzolab, bu davlatlarda o'zining konsullik muassasalarini ochdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi bosh konsulxonasi 1993-yil 4-mayda Turkiya Respublikasida ochilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonning birinchi konsullik muassasalari Jidda, Dubay va Koreyada ochilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining 43 ta konsullik muassasalari, diplomatik vakolatxonalardagi 33 ta konsullik bo'limlari, 9 ta Bosh konsulxonaga va 1 ta konsulxonaga O'zbekiston bilan butun dunyoni bog'lab turib, yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy - konsullik yordamlarini ko'rsatib kelmoqda².

Konsullik tashkilotlari O'zbekiston Tashqi Ishlar Vazirligiga (TIV) bo'ysunib, diplomatik vakolatxonaning boshlig'i, ya'ni elchining boshchiligida o'z faoliyatlarini olib boradilar³.

Konsullik muassasalarining boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri tomonidan tayinlanadi. U konsullik patentini qabul qilib olgandan so'ng, tayinlangan mamlakatga boradi va u yerdan konsullik faoliyatini boshlash uchun ekzekvatura oladi. Qabul qiluvchi mamlakat hukumati tomonidan ekzekvaturani olgandan so'ng, u o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi.⁴ Hozirgi

¹ Консульский Устав Республики Узбекистан. –Т.: Жяхон. 1997.

² O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi materiallaridan. 2010 y.

³ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбидинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. – С. 120

⁴ Консульский Устав Республики Узбекистан. –Т.: Жяхон. 1997

vaqtda O'zbekiston Respublikasi quyidagi davlatlarda 9 ta Faxriy konsullari mavjuddir: Sietl (AQSH), Denver (AQSH), Madrid (Ispaniya), Osaka (Yaponiya), Nitssa (Fransiya), Xanoy (Vetnam) va Bratislava (Slovakiya)¹.

O'zbekistonning Konsullik faoliyati, bevosita O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasi tomonidan boshqariladi. Konsullik boshqarmasi - O'zbekiston Respublikasi TIVning eng asosiy bo'limlardan biri hisoblanadi.

Boshqarma o'z faoliyatini Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi va qonunlari bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalari bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyish va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi TIVning Qaror va Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining qaror va yo'riqnomalari asosida o'z faoliyatini olib boradi.

Boshqarmaning asosiy vazifalari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi siyosatining amaliy realizatsiyasini ta'minlash, O'zbekistonning davlat manfaatlarini himoya qilish va shu bilan birga davlatning xorijda bo'lgan yuridik va boshqa fuqarolarning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi.

Boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalar bilan birga, u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) O'zbekiston Respublikasining konsullik masalalari bo'yicha xalqaro bitimlarni tuzish va ishlab chiqishda qatnashish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi materiallaridan. 2010 y.

b) o'zining faoliyat doirasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi korxonalar, tashkilot va vazirliklariga xorijiy davlatlarning elchixonalar va vakolatxonalar bilan muzokaralar olib borishga ko'maklashadi;

c) belgilab qo'yilgan tartibda respublika hududidagi va xorijiy davlatlardagi elchixonalar, konsullik muassasalari, xalqaro, davlatlararo, nodavlat va mintaqaviy tashkilotlar bilan ish olib boradi;

d) Respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarining tuzilmasini shakllantirish, ishini tashkil qilish va ish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

e) O'zining faoliyatidan kelib chiqqan holda respublika hududidagi boshqa davlatlarning doimiy diplomatik vakolatxonalar bilan xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida munosabatlarni olib boradi;

f) pasport-viza hujjatlarini rasmiylashtiradi;

g) O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi bilan hamkorlikda mahalliy va xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari hujjatlari ularning talabiga binoan rasmiylashtiradi;

h) fuqarolik holati va notariat aktlari bilan bog'liq bo'lgan konsullik masalalarini hal qiladi;

i) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga kiruvchi shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini berish va xorijga chiqib ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini fuqarolikdan chiqarish bo'yicha masalalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqishda qatnashadi;

j) konsullik masalalari bo'yicha qonun loyihalari va aktlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi.

Boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun unga quyidagi huquqlar berilgan:

A. O‘zining faoliyati doirasida boshqa davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va tashqi-siyosiy organlari bilan muzokaralar olib borish huquqiga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining nomidan rasmiy yozishmalarni olib boradi;

B. O‘zbekiston Respublikasining korxonalar, tashkilot, qo‘mita va vazirliklariga konsullik masalalari bo‘yicha talabnoma uzatadi va ularning xulosa, taklif va kerakli hujjatlarini qabul qiladi;

C. Konsullik faoliyati muammolari bo‘yicha qo‘mitalararo maxsus majlislarini tashkil qiladi;

D. Tashkilot, qo‘mita va vazirliklardan kerakli ma'lumotlarni olib, belgilangan tartibda o‘zaro almashish asosida xorijiy davlatlarning konsullik xizmatlari bilan ma'lumotlarni almashadi.

Shunday qilib, Konsullik boshqarmasining asosiy vazifasi, O‘zbekistonning tashqi siyosatini amalga oshirishni ta'minlash, davlat manfaatlarini va xorijdagi respublika fuqarolarining huquqlarini himoyalashdir.

Boshqarma respublika hududida va xorijiy davlatlarda konsullik aloqalarini o‘rnatadi. Konsullik boshqarmasi o‘zining faoliyatidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hukumatlararo bitim va kelishuvlari haqida muzokaralar olib borib xulosalar beradi.

Boshqarma o‘zining faoliyati doirasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari bilan konsullik faoliyati asosida aloqalar o‘rnatib, muzokaralar olib boradi. U O‘zbekistonning xorijdagi konsullik muassasalarining konsullik faoliyati asoslarining huquqiy bazasini ishlab chiqish va takomillashtirishda qatnashadi.

Shu maqsadda boshqarma konsullikka oid qonun loyihalari va normativ aktlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi, konsullik faoliyatiga oid amaldagi respublika qonunchiligiga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

Konsullik boshqarmasi O'zbekistonning xorijdagi konsullik tashkilotlarining tuzilmasini shakllantirish, ishini tashkil qilish va ish faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Boshqarma Toshkentdagi akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy tashkilotlar bilan konsullikka oid aloqalarni olib borish uchun vazirlik va tashkilotlarga ko'maklashadi.

Shunday qilib, O'zbekiston TIVning Konsullik boshqarmasi respublika ichidagi va O'zbekiston tashqarisidagi konsullik tashkilotlarining faoliyati ustidan yagona boshqaruvni amalga oshiradi.

Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun Konsullik boshqarmasida quyidagi tashkiliy tuzilma shakllantirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik tashkilotlari faoliyatini koordinatsiyalovchi bo'lim;
2. Huquqiy bo'lim;
3. Fuqarolik, legalizatsiya ishlari va huquqiy yordam bo'limi;
4. Pasport bo'limi;
5. Viza bo'limi;
6. Aeroportdagi viza bo'limi;
7. Termiz shahridagi konsullik bo'limi.

Konsullik boshqarmasi tashkiliy tuzilmasining har bir bo'limi faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan funksiyalarni amalga oshiradi. O'zbekiston

Respublikasining xorijdagi konsullik tashkilotlari faoliyatini koordinatsiyalovchi bo'lim - O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi konsullik tashkilotlari ustidan nazoratni amalga oshirib, boshqa vazirliklar va tashkilotlar bilan hamkorlikda O'zbekiston konsullik siyosatining kelajakdagi rejasini tuzadi. Bo'lim nazorati ostida O'zbekistonning xorijdagi konsullik tashkilotlarida farmon va yo'riqnomalar bir xillikda bajarilishini ta'minlash, ularning faoliyatini nazorat, tahlil qilib hisobotlar tayyorlab borishdan iboratdir. O'zbekistonning xorijiy davlatlarda konsullik tashkilotlarining hisobotlariga asoslangan holda ularning faoliyati haqida xulosalar chiqaradi. Tahlil natijalariga ko'ra konsullik faoliyatini yanada takomillashtiradi, kadrlar va material baza bilan ta'minlaydi. Xorijiy konsullik tashkilotlaridan kelib tushadigan ma'lumot va korrespondensiyalarini o'rgangan holda ularning faoliyatiga amaliy yordam berishni ta'minlaydi. Bo'lim xorijiy tashkilotlar bilan konsullikka oid ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralarni tayyorlash va o'tkazishda qatnashadi.

Boshqarma konsullik faoliyatini tashkillashtirish vazifasini ko'rib chiqishda, davlat tashkilotlari, vazirliklari va qo'mitalar bilan hamkorlik qiladi, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik tashkilotlari boshliqlari majlisini o'tkazib, ular fikrini bilib, konsullik tashkilotlarining faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Boshqarma konsullik tashkilotlarining ochilishi va yopilishi, kadrlar bilan ta'minlanish masalalari bo'yicha o'zining takliflarini beradi.

Konsullik boshqarmasi O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi konsullik tashkilotlarining faoliyatini yaxshilash bo'yicha inspeksion tashriflar tashkil qiladi. Bular xorijiy konsullik tashkilotlari faoliyati bo'yicha sirkulyar hujjatlarni tayyorlaydi.

Boshqarmaning huquqiy bo'limi, O'zbekistonning yuridik va jismoniy shaxslarining huquq va manfaatlarini to'la himoya qilish va ta'minlash

maqsadida O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan konsullik munosabatlarining huquqiy-shartnomaviy asosini yaratish, rivojlantirish va takomillashtirish bilan shug'ullanadi. Bu bo'lim zimmasiga O'zbekiston qonunchiligining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash, xalqaro huquq normalarini va O'zbekistonning konsullikka oid ikki tomonlama bitimlar normalarining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlashdir. Bu bo'lim xorijiy davlatlar bilan konsullik bitimlari va konvensiyalarini tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda qatnashadi. Bo'lim qonunchilikning qo'llanilish amaliyotini xulosa qilib o'rganadi, konsullik faoliyatiga tegishli bo'lgan eskirgan normativ aktlarni bekor qiladi va yangilarini ishlab chiqadi. Konsullik xizmati, konsullik tashkilotlariga respublika qonunchiligidagi o'zgarishlar haqida operativ xabar berib, informatsion materiallar bilan barcha xorijiy konsullik muassasalarini ta'minlaydi.

Huquqiy bo'limining vazifasiga O'zbekiston qonunlarini qo'llash bo'yicha konsullik muassasalariga tushuntirish ishlarini olib borish va respublikaning ko'p tomonlama shartnomalarini bajarish kiradi. Xorijiy davlatlarning konsullik qonunchilig bo'yicha konsultatsiya ishlarini olib borish ushbu bo'limning xizmati hisoblanadi.

Konsullik boshqarmasida fuqarolik, huquqiy yordam va legalizatsiya bo'limi fuqarolik masalalari bo'yicha maslahat yordamini berib, O'zbekiston fuqaroligiga kirish va chiqish bo'yicha, xorijiy davlatlardan kelib tushadigan arizalar haqida xulosalar tayyorlaydi, ichki ishlar organlari bilan birga O'zbekistonga kirib muhim muqim fuqarolik olish haqida fuqarolarning konsullik tashkilotiga kelib tushadigan talablarini ko'rib chiqadi, va shu bilan birga O'zbekiston fuqaroligini berish va xorijiy davlatga chiqib muqim yashash haqidagi masalalarni ham ko'radi. Bo'lim respublikaga vorislik mulkining kiritilishi, hujjatlashtirilishi va aniqlanishi haqida ko'maklashadi, xorijiy

davlatlarning talabiga binoan O'zbekiston arxivi bilan hamkorlikda fuqarolik holati, mehnat staji va ma'lumoti hujjatlari haqida axborot beradi.

Bo'lim axborot berish faoliyatini ham olib borib, O'zbekiston fuqarolari tomonidan xorijda sodir etilgan huquqbuzarliklar tomonidan O'zbekiston organlariga xabar beradi, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalariga xorijiy fuqarolar tomonidan O'zbekiston hududida ma'muriy, jinoiy xarakterdagi huquqbuzarliklar sodir etilganligi haqida xabar beradi. Bo'lim hujjat va notariat axborotlarini legalizatsiya qilish, xorijiy konsullarning hujjatlardagi imzosini tasdiqlaydi. Shu bilan birga Tashqi Ishlar Vazirligi va Adliya Vazirligining lavozimli shaxslari imzolarini tasdiqlaydi. Bo'lim xorijiy va mahalliy fuqarolarning xorijiy qonunchilik bilan bog'liq oila huquqi masalalari bo'yicha murojaatnomalarni ko'rib chiqadi va bu masalalar bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boradi. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida O'zbekistondagi xorijiy konsullik muassasalariga fuqarolik holatini qayd qilish va O'zbekiston Konsullik Ustavida qayd qilingan boshqa holatlar haqidagi aktlarning hujjatlashtirilishi haqida qoida va yo'riqnomalar beradi.

Konsullik boshqarmasi faoliyatining yo'nalishlaridan biri, o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish bitimi doirasida xorijiy davlatlardagi sud va prokuratura organlarining talabini bajaradi.

TIV Konsullik boshqarmasining faoliyat doirasiga viza masalalari ham kiradi. Boshqarmaning viza bo'limi O'zbekiston bilan xorijiy davlatlarning viza munosabatlari masalalarini o'rganib, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi. Bo'lim O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi konsullik tashkilotlarining viza masalalari bilan bog'liq faoliyatini nazorat qiladi. Bo'lim kirish-chiqish masalalari va xorijiy fuqarolarning O'zbekiston hududiga kelishiga oid normativ aktlarni yaratishda bevosita ishtirok etadi, u yoki bu davlatga nisbatan viza

rejimini qo'llash yoki bekor qilishni o'rganish asosida konsullik bitimlarini tuzish takliflarini ishlab chiqadi.

Bo'lim O'zbekiston hududida konsullik va diplomatik immunitet va ustunliklarning bajarilishi va nazoratini amalga oshiradi. Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston hududida viza berish asosida kelish qoidalarini ishlab chiqadi, O'zbekistonning chegaraga yaqin rayonlaridagi migratsion jarayonlarni o'rganadi, O'zbekistonning viza siyosati masalalari haqida maslahat beradi. Shu bilan birga bo'lim turli tashkilotlar taklifiga binoan O'zbekistonga keluvchi xorijiy fuqarolarga viza berish masalalarini ham ko'rib chiqadi.

Bo'lim O'zbekistonning diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalariga viza bo'yicha metodik yordam berib, kerakli ma'lumot materiallari bilan ta'minlaydi. TIVning Konsullik bo'limida pasport rejimi masalalari bo'yicha maxsus tashkiliy tuzilma shug'ullanadi. Bo'lim diplomatik va ish pasportlarini saqlash, ulardan to'g'ri foydalanish, O'zbekistonning xorijiy davlatga chiqayotgan rasmiy delegatsiyasiga viza bo'yicha yordam berish, respublika diplomatik va konsullik tashkilotlarini pasport-viza hujjatlari bilan ta'minlaydi va O'zbekistonning konsullik muassasalari tomonidan viza berishni nazorat qiladi, chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha sirkulyar qaror va yo'riqnomalarni tayyorlaydi.

Boshqarma O'zbekistonda akkreditatsiyalangan xorijiy tashkilotlarning konsullik bo'limlari va ularning boshliqlari bilan doimiy aloqada bo'ladi.

TIV Konsullik boshqarmasining 2 ta bo'limi tashkilot binosidan tashqarida joylashgan bo'lib, bular - Termizdagi konsullik bo'limi va Toshkent shahri aeroportidagi viza bo'limidir. Bo'limlar xorijiy fuqarolarning konsullik va viza masalalarini yechish bilan shug'ullanadi.

Toshkent shahri aeroportidagi viza bo'limi O'zbekistonga konsullik tashkiloti bo'lmagan davlatlardan kelgan fuqarolarga respublikaga kirish uchun viza bilan ta'minlaydi.

Toshkent aeroportidagi viza bo'limi xorijiy davlatlardan diplomatik pochmani qabul qiladi va jo'natadi. Bu maqsadlar uchun bu bo'lim diplomatik pochtaning o'z vaqtida uzatilishi, qabul qilinishi va yetkazib berilishini nazorat qiladi.

1.4. O'zbekiston Respublikasining konsullik masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlari va normativ-huquqiy aktlari

Mamlakatimizning o'z davlat mustaqilligiga erishishi boshqa davlatlar singari xalqaro munosabatlarda mustaqil ravishda ishtirok etish, milliy manfaatga asoslangan holda tashqi siyosatni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Konsullik masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlarning asosiylaridan biri BMT tashabbusi bilan vujudga kelgan Diplomatik aloqalar to'g'risidagi va Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyalar hisoblanadi.

1963-yil 24-apreldagi BMT Konferensiyasida 5 ta bob, 79 ta moddadan iborat Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilingan bo'lib, 1967-yil 19-martda kuchga kirgan. Xalqaro munosabatlardagi amaliyotdan kelib chiqib davlatlar o'rtasidagi konsullik aloqalari ular o'rtasidagi o'zaro kelishuv orqali amalga oshirilishini Vena konvensiyasi nazarda tutadi. Konvensiyaga ko'ra davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, shuningdek konsullik aloqalrining o'rnatilishiga asos bo'ladi. Diplomatik aloqalarning buzilishi natijasida esa konsullik aloqalari buzilmaydi. Xorij davlatlar bilan konsullik aloqalari ikki tomonlama konsullik konvensiyalari, shu bilan birga davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi konsullik vazifalari: o'zi ifoda etgan davlatning va uning fuqarolarining manfaatlarini

himoya qilish va ularga konsullik xizmati amalga oshirishni tartibga soladi. Bu konvensiyada konsullik mansabdor shaxslar va konsulxona xodimlariga tegishli immunitet va imtiyozlar, shuningdek konsullik mansabdor shaxslarni tayinlashva qabul qilish, ekzekvatura berish tartibi ko'rsatilgan.

1961-yil 18-aprelda BMT tashabbusi bilan Venada diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Bu konvensiya 1964-yil 24-aprelda kuchga kirgan. Vena konvensiyasi diplomatik aloqalar o'rnatishni, diplomatik vakolatxona boshliqlarini akredetatsiyalash va uning vazifalarini tugatish, diplomatik vakolatxona joylashgan davlatning TIVga diplomatik vakolatxona xodimlarining tayinlanishi, kelishi va vazifalarining tugatilishi, shuningdek ularning oila a'zolari to'g'risida xabardor etishi, diplomatik vakolatxona boshliqlarining toifalarini o'rnatish, diplomatik immunitet va imtiyozlarni belgilashni tartibga soladi.

Yuqori zikr etilgan konvensiyalar bilan bir qatorda davlar o'rtasidagi konsullik aloqalari ularning ichki qonunlari bilan ham tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining konsullik xizmati Konsullik ustavi va boshqa bir qator normativ hujjatlar orqali amlaga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi Oliy Majlisning 1996-yil 29 avgustdagi 262-I-sonli Qaroriga muvofiq amalgam kiritilgan bo'lib, 4 bo'lim, 13 bob, 78 moddadan iborat. Konsullik ustavi 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiya qoidalari asosida tayyorlangan. Konsullik ustavi to'rt guruh konsullik xizmatiga oid munosabatlarni tartibga soladi:

birinchidan, konsullik muassasalari va ularning faoliyatini tashkil etish;

ikkinchidan, konsullik vazifalari va ularni bajarish tartibi;

uchinchidan, notarial harakatlar, konsulning hujjatlarni qonunlashtirishi, konsullik yig'implari;

to'rtinchidan, imtiyozlar hamda immunitetlar va konsul vazifasining tugatilishi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining konsullik masalalari bo'yicha imzolangan ikkitomonlama va ko'ptomonlama shartnomalari konsullik aloqalarini tartibga solishdan va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish borasida imzolangan shartnomalari: 1) O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyati o'rtasidagi fuqarolik, savdo va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Shartnoma; 2) O'zbekiston va Gruzniya o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 3) O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 4) O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 5) O'zbekiston Respublikasi va Litva Respublikasi o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 6) O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 7) O'zbekiston Respublikasi va Azarbayjon Respublikasi o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Shartnoma; 8) O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Respublikasi o'rtasidagi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Shartnoma; 9) O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'rtasidagi o'zaro huquqiy

yordam va fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risida Shartnoma¹.

Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy himoyani ta'minlashga qaratilgan ushbu shartnomalar asosida quyidagi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- taraflarni vakolatli organlari o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish tartibi;
- fuqarolarga ko'rastiladigan huquqiy yordam doirasi;
- taraflar hududida vakolatli organ tomonidan berilgan talabnomalarni ijro etish tartibi;
- taraflarning vakolatli organlari tomonidan hujjatlarning haqiqiylikini aniqlash;
- huquqiy masalalar bo'yicha o'zaro axborot almashish;
- huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq harajatlar;
- taraflar hududida jinoyat va fuqarolik ishlarining sudlovga tegishlilik;
- taraflar hududida chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish;
- taraflarning vakolatli organlariga jinoiy ta'qibini amalga oshirish yuzasidan topshiriq berish hamda uning natijalari yuzasidan axborot olish;

Kelishayotgan taraflar hududlarida bir-birlarining fuqarolarining shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qiladi, ular ham erkin va hech qanday to'siqlarsiz sud, prokuratura va boshqa adliya organlariga murojaat qilishlari, da'vo qo'zg'atishlari va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

¹ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. – С. 445-503.

O‘zbekiston Respublikasi do‘stona munosabatlarni o‘rnatish, iqtisodiy, savdo, fan-texnika, madaniy va boshqa aloqalarni mustahkamlash, konsullik xizmati organlarining hamkorligini yanada yuksaltirish, ishtirokchi davlatlari fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning bir-birlarining davlatlariga sayohat qilishlarini qulaylashtirish maqsadida bir qator davlatlar bilan bitimlar tuzgan: 1) MDH davlatlari hududida ishtirokchi davlatlar fuqarolarining vizasiz harakatlanishi to‘g‘risidagi Bitim. Ishtirokchi davlatlar fuqarolari shaxsini yoki fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lgan taqdirda bir-birlarining hududlariga kirishi, undan chiqishni va unda harakatlanishlari mumkin. 2) Ishtirokchi MDH davlatlarining vizalarini o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi Bitim. Mazkur bitimga binoan Har bir taraf boshqa tarafning vakolatli organlari tomonidan chet el fuqarolariga berilgan kirish, chiqish va tranzit vizalarini tan oladi. Tarfalardan biri tomonidan o‘z hududiga kirish, unda bo‘lish va undan chiqish uchun berilgan vizalar uning egasiga ishtirokchi davlatlar hududlaridan tranzit orqali o‘tish huquqini ham beradi. 3) Ishtirokchi MDH davlatlari fuqarolarining MDH ga kirmaydigan davlatga kirishi va undan chiqish tartibi to‘g‘risidagi Bitim. Ishtirokchi davlat fuqarolari hamdo‘stlikka kirmaydigan davlat hududida bo‘lib turgan paytlarida o‘sha davlatning qonun-qoidalariga rioya qilishlari lozim. 4) O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Slovakiya Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi diplomatik va xizmat pasportiga ega fuqarolarning vizasiz safarlari to‘g‘risidagi Bitim. Haqiqiy diplomatik pasportiga ega bo‘lgan va Slovakiya Respublikasida 60 kundan kam muddatga bo‘lmoqchi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, haqiqiy diplomatik pasportiga ega va O‘zbekiston Respublikasida 90 kundan kam muddatga bo‘lmoqchi bo‘lgan Slovakiya Respublikasi fuqarolari bir-birlarining hududlariga vizasiz kiradi. Diplomantik vakolatxona, konsullik muassaslari va xalqaro tashkilotlarning diplomatik yoki xizmat pasportiga ega bo‘lgan

xodimlari butun ish faoliyati davomida taraflar hududiga kirishi, unda bo'lishi va undan chiqishi mumkin¹. 5) O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Azarbayjon Respublikasi Hukumati o'rtasidagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va Azarbayjon Respublikasi fuqarolarining vizasiz safarlari to'g'risidagi Bitim. Taraflar fuqarolari bir-birlarining hududlariga davlatdagi ro'yxatga olish va unda bo'lish qoidalariga rioya qilgan holda hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan vizasiz kirish, unda bo'lish va undan chiqish huquqiga ega; O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Vengriya Respublikasi Hukumati o'rtasidagi diplomatik pasportga ega fuqarolarning o'zaro vizasiz safarlari tartibi to'g'risidagi Bitim. Kelishuvchi taraflardan birining diplomatik pasportga ega bo'lgan fuqarosi xalqaro yo'lovilarga mo'ljallangan chegara o'tkazish punktlari orqali vizasiz kirishi, unda chiqishi, tranzit orqali o'tishi va vaqtincha bo'lish huquqiga ega, unda bo'lish muddati unga kirgan kundan boshlab 90 kundan oshmasligi lozim². Turkiya Jumhuriyati va O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasidagi viza ishlarini yengillashtirish to'g'risidagi Bitim. Tomonlar davlat sifatida viza so'rab qilingan murojaatlarga mumkin qadar eng qisqa muddatda o'rganib, javob beradi. Turkiya vizasini olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari boshqa chet elliklar kabi Turkiyaning har yerida sayohat erkinligiga ega, jumladan, O'zbekiston vizasini olgan Turkiya fuqarolari maxsus muassasalar, harbiy zonalar va ko'pchilikning kirishi mumkin bo'lmagan joylardan tashqari O'zbekiston Respublikasining har yerida sayohat qilish erkinligiga ega. Taraflar xizmat pasport egalariga bepul viza beradi, umumiy oddiy pasportlardan olinadigan viza harajatlarini eng kam miqdorda belgilaydilar.

¹ http://mfa.uz/rus/konsulskie_voprosi/

² http://mfa.uz/rus/konsulskie_voprosi/

II. BOB. CHET ELDAGI FUQAROLAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA KONSULLIK XIZMATINING O'RNI

2.1.Konsullik ro'yxatiga olish va Pasportni rasmiylashtirish

Konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolari konsulxona joylashgan davlanning qonun hujjatlarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi hamda konsulxona joylashgan davlat ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga shuningdek xalqaro taomillarga ko'ra ularga berilgan barcha huquqlardan foydalana olishlari hamda buzilgan huquqlari tiklanishi uchun chora-tadbirlar ko'rish va ularni kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari Ozbekiston Respublikasi fuqarolariga quyidagi xizmatlarni amalga oshiradi:

konsullik ro'yxatga olish; doimiy yashash ruxsatnomasini rasmiylashtirish; passport va qaytish sertifikatni berish; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish; notarila harakatlar va hujjatlarni legalizatsiyalash; MDH davlatlaridagi fuqarolariga chet elga chiqish ruxsatnomasini berish; fuqarolikka qabul qilish va undan chiqish masalalari, O'zbekiston fuqaroligiga mansub emaslik to'g'risidagi masalalarni ko'rish; chet elda hibsga olingan va sudlanganlar qonuniy manfaatlarini ta'minlash va boshqa huquqiy harakatlar;

O'zbekiston Respublikasining vaqtincha va doimiy chet elda yashaydigan, chet elga xizmat safari yoki shaxsiy ishlari bilan chiqayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari ularning konsullik okrugining hududida bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi¹. Fuqarolar ular konsullik okrugida

¹ Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.:

hududida yashaydigan O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasida ro'yxatdan o'tadi. Chet elda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ro'yxatdan o'tishi uchun, belgilangan tartibga muvofiq konsullik yig'imi olinadi. Ro'yxatdan o'tish paytida hisob varaqasi to'ldiriladi, hisob varaqasiga ro'yxatga olinayotgan shaxsning rasmi biriktiriladi¹.

16 yoshga yetmagan bolalar ota-onasidan birining hisob varaqasiga kiritiladi. 16 yoshga yetganidan keyin ular uchun alohida hisob varaqalari to'ldiriladi.

16 yoshga yetmagan va chet elda ota-onalarisiz o'zi yashaydigan O'zbekiston fuqarolariga xuddi 16 yoshdan yuqori bo'lganlarniki kabi alohida hisob varaqalar to'ldiriladi².

Ro'yxatdan o'tishdan keyin sodir bo'lgan hisob ma'lumotlaridagi o'zgarishlar holatida hisob varaqalarida tegishli belgilar va tuzatishlar amalga oshiriladi. Bunda avvalgi belgilar yo'q qilinmaydi, faqat ustidan chiziladi. Agar varaqa blankasida qo'shimcha yozuvlar uchun joy qolmasa, eski ro'yxat hisob varaqasiga yangisi biriktiriladi. Familiya o'zgartirilganda yangi hisob varaqasi to'ldiriladi. Eski varaqa kartotekada o'z joyida qoldiriladi va unga belgi qo'yiladi.

Agar ro'yxatdan o'tayotgan shaxsning pasportida uning avvalgi turar joyidagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasida ro'yxatdan

Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. – С. 393.

¹ Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 393. Инструкция №348 от 04.06.1997г. «О порядке регистрации и учета граждан Республике Узбекистан за границей»

² Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 393. Инструкция №348 от 04.06.1997г. «О порядке регистрации и учета граждан Республике Узбекистан за границей»

olinganligi to'g'risida belgi bo'lsa, bunday shaxs odatdagi tartibda, ya'ni hisob varaqasi batafsil to'ldirilgan holda hisobga olinadi, uning nusxasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligiga yuboriladi.

Ro'yxatdan o'tishda pasportda quyidagi belgi: «... (O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasining nomi va manzili) da ro'yxatga olingan», sana va ro'yxatga olgan shaxsning imzosi qo'yiladi.

Hisob varaqalari ro'yxatga olinganlar kartotekasida «O'zbekiston Respublikasining doimiy yashovchi fuqarolari» bo'limida alfavit tartibida saqlanadi.

Chet elda doimiy yashaydigan, lekin O'zbekiston pasportlarga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun varaqalar to'ldiriladi. Bu holda hisob varaqalarida O'zbekiston Respublikasining pasporti berilishi to'g'risidagi iltimosnoma qo'zg'atilganligining sanasi to'g'risida belgi qo'yiladi. Bunday shaxslar uchun hisob varaqalari alohida saqlanadi.

Ro'yxatdan olinganda hisob varaqasiga tegishli yozuv kiritiladi. Pasportda «(O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasining nomi va manzili) tomonidan ... (sababi) sababi bilan ro'yxatdan olingan» belgisi, sana va ro'yxatga olgan shaxsning imzosi qo'yiladi.

Ro'yxatdan olingan shaxslarning hisob varaqalari ro'yxatdan olinganlarning kartotekasiga «O'zbekiston Respublikasining doimiy yashovchi fuqarolari» bo'limiga, ro'yxatdan olish sanasi va sababi to'g'risidagi belgilari bilan, o'tkaziladi.

Ro'yxatdan olinganlarning hisob varaqalari 2 yil saqlanadi va keyin tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda yo'q qilinadi¹.

¹ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.:

O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarida olti oydan ortiq muddatga xizmat safari yoki shaxsiy ishi bilan chet elga chiqqan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari ro‘yxatga olinishi lozim. Chet elga olti oydan ortiq muddatga ishga yuborilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ular ishlagan muassasa konsullik okrugining hududida joylashgan O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ro‘yxatdan o‘tishda 2-shaklidagi hisob varaqasi to‘ldiriladi (2-Ilova).

Xizmat safariga yuborilgan O‘zbekiston fuqarolarining pasportlarida hech qanday ro‘yxatdan o‘tish belgilari qo‘yilmaydi.

Sayyoh va avlatdan tranzit o‘tuvchi xizmat safariga yuborilgan O‘zbekiston fuqarolari ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi.

Davlatga olti oydan ortiq muddatga xizmat safariga yoki shaxsiy ishi bilan kelgan fuqarolari O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarida jurnallar yoki hisob varaqalari bo‘yicha hisobga olinadi. Journallar joylarda istalgan shaklda (konsullik muassasasi rahbarining ixtiyoriga ko‘ra) yuritiladi. Bu fuqarolarning pasportlariga hech qanday belgilar qo‘yilmaydi.

Hisob varaqasi ro‘yxatdan olinganlarning kartotekasiga «O‘zbekiston Respublikasining xizmat safaridagi fuqarolari» bo‘limiga o‘tkaziladi.

Ro‘yxatdan olinganlarning hisob varaqalari 2 yil saqlanadi va keyin dalolatnoma tuzilmagan holda yo‘q qilinadi.

Xizmat safaridagi O‘zbekiston fuqarolari pasportlarida hisobdan olinganligi haqida hech qanday belgilar qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari chet el xizmat safarida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ro‘yxati masalalari yuzasidan javobgarligini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari har yil choragida O‘zbekiston Respublikasining Tashqi Ishlar Vazirligi Konsullik boshqarmasiga chet elga xizmat safariga olti oydan ortiq muddatga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ro‘yxati yuzasidan ma'lumot taqdim etishi lozim¹.

Pasportni rasmiylashtirish. Chet elda doimiy yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek «O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida» gi Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti chet eldagi O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining pasportlari butun O‘zbekiston Respublikasi uchun yagona namunada o‘zbek, rus va ingliz tillarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun esa qoraqalpoq, o‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanadi hamda tarkibi 32 betdan iborat bo‘ladi².

Fuqarolarning roziligi bilan ularning pasportlarida pasport egasining qoni guruhi va rezus-ko‘rsatkichi belgilari kiritiladi. Fuqaroning pasportida O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risidagi Nizomda ko‘zda tutilmagan yozuvlarni kiritish taqiqlanadi.

¹ Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 393. Инструкция №348 от 04.06.1997г. «О порядке регистрации и учета граждан Республике Узбекистан за границей»

² Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам.И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 419. Инструкция №726 от 11.05.1999г. «О порядке выдачи и обмена паспортов гражданам Республики Узбекистан дипломатическими представительствами и консульскими учреждениями Республики Узбекистан за рубежом»

16 Yoshga yetgan shaxsga pasport beriladi va u shaxsning 25 yoshga yetguncha amal qiladi.

25 va 45 yoshga yetgan fuqarolarga yangi pasportlar beriladi va ularga avvalgi pasportlaridan pasport berilishi paytiga kelib amalda bshlgan barcha ma'lumotlar ko'chiriladi.

Pasport chet elda unda ko'rsatilgan muddatga haqiqiy bo'ladi.

Chet elda doimiy yashaydigan yoki O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan fuqarolarga pasport berilishi va almashinishi chet eldagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Chet elda doimiy yashaydigan yoki O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan fuqaro pasportini olganda avvalgi olgan pasportini O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalarga qaytarib berishi lozim.

Bekor qilingan pasportlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasiga keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligiga yuborish uchun beriladi.

Pasportni olish uchun fuqaro tomonidan diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga quyidagilar taqdim etiladi:

ariza;

avvalgi olingan pasport;

¹ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 419. Инструкция №726 от 11.05.1999г. «О порядке выдачи и обмена паспортов гражданам Республики Узбекистан дипломатическими представительствами и консульскими учреждениями Республики Узбекистан за рубежом»

tug‘ilganligi haqidagi guvohnomasi (pasport birinchi marta olinganda);

35 x 45 mm kattalikdagi oq-qora yoki rangli tasvirli ikkita fotosurat;

Zarur bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi va shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasining mansabdor shaxsi fuqaroga pasport berganda ayni paytda Kelib tushgan pasportni hisobga olish va fuqarolarga berish kitobida pasportni hisobdan chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini olgan barcha shaxslar to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar kompyuterga kiritiladi va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasiga beriladi.

Pasport amal qilish muddati tugashidan bir oy avval fuqaro pasportni va uning yoshiga mos keluvchi 35 x 45 mm kattalikdagi oq-qora yoki rangli tasvirli ikkita fotosuratni taqdim etishi lozim.

Fuqaro pasportni olish yoki almashtirish uchun hujjatlarni va fotografik suratlarni tegishli yoshiga yetganidan, familiya, ismi, ota ismi o‘zgartirilgan, millati, tug‘ilgan yili o‘zgartirilgan, yozuvlarda noaniqliklar aniqlanganidan keyin va pasport foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib qolganidan keyin bir oylik muddat ichida, pasport muayyan muddatga berilgan hollarda esa - pasport amal qilish muddati tugaganidan boshlab uch kunlik muddat ichida taqdim etishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan almashtirish shaklida yoki yo‘qolgan pasport o‘rniga beriladigan pasportga voyaga yetmagan bolalari to‘g‘risida ma‘lumotlar, shuningdek nikohdan o‘tganligi, doimiy yashash manzili, harbiy majburiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalari tomonidan pasport berilishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan konsullik yig‘imi olinadi.

Fuqaro o‘z pasprtini ehtiyot bo‘lib saqlashi lozim. Pasporti chet elda yo‘qolganligi to‘g‘risida fuqaro darhol O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalariga xabar qilishi lozim, ular uning murojaatiga ko‘ra unga shu haqdagi belgilangan namunadagi ma'lumotnomani beradi. Konsullik mansabdor shaxsi, fuqaroning pasport yo‘qolganligi to‘g‘risidagi arizasini shikoyatlar va arizalarni ro‘yxatga olish kitobida ro‘yxatdan o‘tkazib, ushbu arizani O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasiga, tegishli tartibda tekshiruvni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligini yuborish maqsadida, yuboradi.

Pasport yo‘qolgan holda O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari yashayotgan davlatining vakolatli organlarini, shuningdek yashayotgan davlatida akkreditlangan boshqa davlatlarning vakolatxonalarini O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti bekor qilinganligi haqida xabardor qiladi.

Fuqaro tomonidan pasporti yo‘qotilganda yangi pasport mazkur Yo‘riqnama bilan belgilangan tartibda yo‘qotilganligi to‘g‘risida ariza berilgan kundan boshlab bir oy ichida beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi tugatilgan shaxs o‘z pasportini yashash hududidagi O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga topshirishi lozim.

Vafot etganlarning pasportlari O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga topshiriladi, ular o‘lim ro‘yxatga olinganidan keyin kechi bilan bir oy muddatda ularni O‘zbekiston

Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasiga, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligiga yuborilishi uchun, beradilar.

Topilgan pasport O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga topshirilishi lozim.

Pasport blankalarini hisobga olish, saqlash, yo'q qilish

Pasport blankalari qat'iy hisobot hujjatlari bo'lib, ularni hisobga olish va saqlash ularning to'liq saqlanishini ta'minlaydigan qilib tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining pasport blankalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligi Konsullik Boshqarmasining pasport bo'limida saqlanadi.

Berilgan pasportlarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligi Konsullik Boshqarmasining pasport bo'limi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq maxsuslashtirilgan kompyuter tizimida amalga oshiriladi.

O'rniga yangi pasportlar berilgan eski pasportlar O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligi Konsullik Boshqarmasiga yuboriladi. Konsullik boshqarmasi o'z navbatida, pasport qaysi organ tomonidan berilganligiga qarab, pasportlarni yo'q qiladi yoki Ichki Ishlar Vazirligi Xorijga chiqish-kelish fuqarolik boshqarmasiga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasining chet eldagshi konsullik muassasalari tomonidan berilgan pasportlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining Konsullik Boshqarmasi tomonidan yiliga kamilda bir marta, Tashqi Ishlar Vazirligi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan dalolatnomaga asosan yo'q qilinadi. Ushbu daolatnomada pasport egasining familiyasi, ismi, ota ismi, pasport serisi va raqami ko'rsatiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan berilgan pasportlar Konsullik Boshqarmasi tomonidan Ichki Ishlar Vazirligi Xorijga chiqish-kelish fuqarolik boshqarmasiga yo‘q qilish uchun yuboriladi.

Sertifikat berish masalalar. Qaytish sertifikati chet elda vaqtincha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga va fuqaroligi yo‘q shaxslarga ular shaxsini tasdiqlovchi hujjattini, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi pasporti, fuqaroligi yo‘qligi to‘g‘risidagi guvohnomani, yo‘qatganda beriluvchi hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga tegishli pasportning amal qilish muddati tugaganligi munosabati bilan chet elda turgan davlatidan chiqib ketishidan oldin unga qaytish sertifikati berildi.

Sertifikatda O‘zbekiston Respublikasiga qaytish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ismi, familiyasi, tug‘ilgan yili va joyi, sertifikat muddati, shuningdek shu shaxsga tegishli 16 yoshga to‘lmagan farzandlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uzbek va ingliz tillarida ko‘rsatiladi¹.

Shaxsini tasdiqlovchi hujjatining amal qilish muddati tugagan yoki uni yo‘qatgan shaxs sertifikat olish uchun O‘zbekiston respublikasi konsullik muassasasiga o‘z arizasi bilan murojat qiladi.

Qaytish uchun sertifikatni berish tartibi va uni ishlatilishi bo‘yicha hisobot.

Sertifikatni olish uchun shaxs O‘zbekiston Respublikasi Konsullik muassasasiga ariza bilan murojat qiladi. Unda familiyasi, otasining ismi, ismi, tug‘ilgan yili va joyi, O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy turar joy manzili, pasport seriyasi va raqami yoki fuqaroligi yo‘q bo‘lgan shaxsning guvohnomasi,

¹ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбидинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 409. Инструкция №448 от 17.06.1998г. «О порядке выдачи сертификата на возвращение в Республику Узбекистан»

berilgan sanasi, ko'rsatilgan xujjatlarni bergan idora, ularning amal qilish muddati, hamda O'zbekiston Respublikasida yashayotgan yaqin qarindoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Arizaga 3 x 4 hajmdagi 3ta fotosurat ilova qilinadi va imkon qadar quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Turgan mamlakatning vakolatli idorasi tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatning yo'qotilganligi yoki o'g'irlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

Turistik guruhining rahbari yoki turgan mamlakatidagi O'zbekiston Respublikasi vakilining tasdig'i;

Arizachi o'qishda, davolanishda yoki xizmat safarida bo'lgan kerakli tashkilotning tasdig'i;

turar joyidagi konsulning mamlakatiga mazkur shaxsning kirish to'g'risida turar joydagi vakolatli idorasining tasdig'i;

mavjud bo'lsa fuqaroligi yo'q bo'lgan shaxsning pasporti yoki guvohnomasining nusxasi.

Ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi dalillari yetarli bo'lmaganda, O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligidagi konsullik boshqarmasiga shaxsni tasdiqlovchi so'rovnomasini fotosurat bilan birga yo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligidagi konsullik boshqarmasi O'zbekiston Respublikasidagi kerakli idoralari orqali so'ralgan shaxsning shaxsini aniqlaydi va natijalari to'g'risida konsullik muassasani

habardor qiladi. Ijobiy javobni olganda, konsullik muassasasi shaxsga qaytish uchun sertifikat beradi¹.

Istisnoli hollarda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligidan javobni kutmay 24 soat davomida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligini keyinchalik habardor qilib konsul sertifikatni berishi mumkin.

Qaytish uchun sertifikat konsul yoki konsullik vazifalarini bajarayotgan xodim tomonidan imzolanadi; imzo gerbli muhr bilan biriktiriladi. Sertifikatga arizachining fotosurati yopishtiriladi va gerbli muhr qo‘yiladi. Sertifikat blankasining orqa tomonida o‘zbek va ingliz tilidagi belgi tamg‘alanib yoki yozib kiritiladi, so‘ng gerbli muhr bilan biriktiriladi. Sertifikat berilayotganda uning tartib raqami qo‘yiladi. Arizachi olganligi to‘g‘risida jurnalda imzo qo‘yadi. Qaytish uchun sertifikatning amal qilish muddati egasining O‘zbekistonga qaytish sanasiga (chipta bo‘yicha) qarab, ammo bir oy muddatdan ortmaydigan muddatga konsul tomonidan belgilanadi.

Fuqaroni O‘zbekiston Respublikasiga qaytish sertifikati bo‘yicha uchinchi mamlakatlar orqali tranzit bilan jo‘nab ketishi holida, sertifikatning orqa tomonida uchinchi davlatlarning tranzit vizalari qo‘yilishi mumkin.

Sertifikat shet el fuqarolariga, chet elda doimiy ravishda yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga berilmaydi.

¹ Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С. 409. Инструкция №448 от 17.06.1998г. «О порядке выдачи сертификата на возвращение в Республику Узбекистан»

2.2. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish masalalari

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish vazifasi konsulning huquqiy vakolatlaridan biridir. Tug'ilish, nikohdan o'tish, nikohni bekor qilish, farzandlikka olish, otaliqni belgilash, ismni o'zgartirish, fuqaroning vafot etishi kabi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak. Fuqarolik holati xujjatlarini qayd etish fuqarolik holati hujjatlarini yozish organlari tomonidan fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish daftariga (hujjatlar daftariga) tegishli yozuvlarni kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvoxbnomalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi¹.

Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarni tuzatish va o'zgartirish yetarli asoslar bo'lsa hamda manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmasa, fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.² Konsulning fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish masalalariga doir vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavining VII-bobida o'z xuquqiy asosini topgan. Konsul xorijiy mamlakatlarda doimiy yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holati aktlari yozuvlariga o'zgartirishlar, tuzatishlar, to'ldirishlar kiritish tug'risidagi, yo'qolgan yozuvlarni tiklash haqidagi, shuningdek, familiya, ism, ota ismini o'zgartirish xususidagi iltimosnomalarini qabul qiladi va ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekistonning vakolatli idoralariga yuklaydi.

Konsul tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (203-modda), O'zbekiston Konsullik Ustavining 46-moddasi³ talabiga ko'ra qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-son qarori

¹ Ўзбекистон консуллик хизмати (фуқароларни халқаро хусусий ҳуқуқий манфаатларининг ҳимояланиши: назарий ва амалий муаммолар). Расулов Ш.В. Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси. - Т. Адолат, 2008. Б.75.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. — Т.:Adolat. 1996.-В.21.

³ O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi. — Т.:Jaxon. 1997.-В. 14.

bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari" tashkil etadi. Ushbu qoida 1998 yil 25 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tug'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida Konsullik Ustavining zikr etilgan moddasiga kiritilgan o'zgartirishdir. Bungacha esa, Konsullik Ustavining 46-moddasida konsul tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan Uzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yo'riqnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan edi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2006 yil 22 aprelda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Xay'ati qarori bilan tasdiqlanib, 1564-son bilan mazkur Vazirlik tomonidan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) organlarida ish yuritish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (203-moddasi), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ga, Adliya vazirligi Xay'atining 2005 yil 27 oktabrdagi 34-sonli qarori bilan tasdiqdangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan¹.

Zikr etilgan Yo'riqnomada qayd etilganidek, Oila kodeksining 203-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari va mazkur Yo'riqnomaga muvofiq qayd etiladi. Shu bilan birga ushbu idoraviy xujjatda dalolatnoma

¹ Ўзбекистон консуллик хизмати (фуқароларни халқаро хусусий ҳуқуқий манфаатларининг ҳимояланиши: назарий ва амалий муаммолар). Расулов Ш.В. Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси. - Т. Адолат, 2008. Б.75,76.

yo'zuvlari aniq xujjatlar asosida qayd etilishi hamda Tashqi ishlar vazirligi konsullik muassasalari gerbli guvoxonmalar blankalari bilan, ehtiyojiga qarab, Toshkent shaxri uchun tayyorlatilgan seriyadagi gerbli guvoxonmalar xisobidan ta'minlanishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu bois mazkur Yo'riqnoma ham Konsul tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishning huquqiy asosini tashkil etuvchi huquqiy hujjat sifatida harakterlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi konsulining nikohga doir faoliyatini tahlil etadigan bo'lsak, ushbu vazifani amalga oshirishning huquqiy asoslarini asosan O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-son Qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish" Qoidalari va Adliya vazirligi Xay'atining 2005 yil 27 - oktyabrdagi 37-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tug'risida"gi Nizom hamda 2006 yil 22-aprelda Adliya vazirligi xay'ati qarori bilan tasdiqanib, 1564-son bilan mazkur Vazirlik tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO)organlarida ish yuritish tartib to'g'risida" Yo'riqnoma tashkil etadi.

Oila Kodeksining 235-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijiy davlatlarda nikohdan o'tish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun xujjatlariga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rta-sida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeks-ning 16-moddasida nazarda tutilgan, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar (ya'ni nikox tuzishga: loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida; nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri

tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tutishgan va ugay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzanddikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida; loaqal bittasi ruxiyat buzilishi (ruxiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi) mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun xujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi"1.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan fuqarolarimiz tegishli xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasida tuzgan nikohlarini qayddan o'tkazaveradilar. Agar elchixona joylashgan davlatda O'zbekiston fuqarosi chet ellik fuqaro bilan tuzadigan nikohi haqiqiy deb tan olinsa, konsul bunday nikohlarni ham qayddan o'tkazaveradi. Bunday nikohlar tuzilayotgan paytda konsulimiz, albatta, O'zbekiston qonunlarini, shu jumladan O'zbekistonning kollizion normalarini ham qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavining 46-moddasi talabi asosida ishlab chiqilib, 1999 yil 12 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 171-sonli Qaror bilan tasdiqlangan Qoidaning 98-bandida ham konsulning nikohni qayd etishga oid vakolati o'z huquqiy mexanizmini topgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohini qayd etish, agar nikohni kayd etish konsullik muassasasi joylashgan o'sha davlatning qonunlari bilan tan olinganda, shuningdek, o'sha davlat va O'zbekiston Respublikasi qatnashgan bitim yoki bu xalqaro shartnomalarga muvofiq hollardagina konsul tomonidan amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan Qoidaning 99-band, uchinchi xat boshida: "Boshqa davlatda yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi

bilan mazkur davlatning tegishli organlarida nikohni qayd ettirmoqchi bo'lgan o'sha davlat fuqarosining iltimosiga ko'ra, konsul nikohni qayd etuvchi o'sha davlat organlariga taqdim etish uchun ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi nikohda turmasligi haqida ma'lumotnoma berishi mumkin. Bunday ma'lumotnomalar konsullik muassasalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida beriladi. Agar konsullik muassasasida nikohdan o'tuvchi shaxsning oilaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan hollarda konsul bu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan oladi" deyilgan.

Masalan, voyaga etmagan bolalari bo'lmagan, ikkalasi ham O'zbekiston fuqarosi bo'lgan er-xotinning nikohdan ajralishi, bu haqda ularning o'zaro kelishuvi bo'lgan taqdirda, ular yashab turgan joydagi yoki ulardan biri yashab turgan joydagi O'zbekistonning konsullik muassasasida ko'riladi. Bunday hollarda nikohdan ajralish haqida er-xotinning ikkalasidan ariza talab qilinadi. Agar uzrli sabablarga ko'ra (kasallik, harbiy xizmat, uzoq joyda istiqomat qilish va h.k.) er-xotindan birontasi konsullik muassasasiga kelolmasa, ularning ikkalasi imzolagan ariza er yoki xotin tomonidan topshirilishi mumkin. Konsullik muassasasiga kelolmagan tarafning imzosi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida, notarial tartibda yoki ikkinchi taraf yashab turgan joydagi konsullik muassasasiga shahodatlangan bo'lishi kerak. Nikohdan ajratish haqidagi guvoxnoma konsullik muassasasiga kelolmagan er yoki xotining, agar u Toshkentda yashab turgan bo'lsa, Tashqi ishlar vazirligi orqali u yashab turgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini hal qiluvchi organga, agar u O'zbekistondan tashqarida yashab turgan bo'lsa elchixonaga yoki konsullik muassasasi orqali u yashab turgan joyga jo'natiladi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000. – B. 427-428

Konsulning xalqaro xususiy huquq predmetiga oid muhim vazifalaridan yana biri bu - vorislik ishlaridir.

Vorislik ishlarini meros qoldiruvchi mamlakatning organlari amalga oshiradi (ko'char mol-mulkka nisbatan), yoki ko'chmas mol-mulk qaysi mamlakatda joylashgan bo'lsa, o'sha mamlakatning organlari ish yuritadi. Shaxsning vasiyatnoma qoldirishi, uni o'zgartirishi yoki bekor qilish layoqati meros qoldiruvchining qonunchiligi bilan belgilanadi. Vasiyatnomaning shakli ham ushbu qonunchilik bilan belgilanadi. Lekin, shuni ham aytib o'tish lozimki, vasiyatnoma haqiqiy sanalishi uchun u tuzilayotgan davlatning qonuniga rioya qilinishi kifoyadir. Bu boradagi xorijiy tajribalarni tahlil etadigan bo'lsak, masalan, Evropa mamlakatlarining qonunchiligi vasiyatnomaning quyidagi asosiy shakllarini nazarda tutadi:

Shaxsning o'z qo'li bilan tuzgan vasiyatnoma — ushbu vasiyatnoma boshidan oxirigacha meros qoldiruvchining o'zi tomonidan yoziladi, imzolanadi va sana qo'yiladi. Bu yerda soxta vasiyatnomalarning vujudga kelish ehtimoli kamaysada, biroq vasiyatnomaning nobud bo'lishi, yo'qolishi, uchinchi shaxs tomonidan boshqacha ta'sir ko'rsatilish ehtimoli yo'q emas. Ommaviy hujjat shaklidagi vasiyatnoma — bu erda qonunda belgilangan tartibda rasmiy mansabdor shaxs (odatda notarius) ishtirokida vasiyatnoma tuziladi (Frantsiyada vasiyatnoma ikki notarius yoki ikki guvoh ishtirokida tuziladi). Bu shaklning asosiy ustuvorligi vasiyatnomaning haqiqiyliги kafolatlanadi va vasiyatnomaning mazmuni vasiyat qiluvchining irodasiga to'liq rioya qilingan holda tuziladi.

Maxfiy vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan tuzilib, imzolanadi va elimlangan xatjildda odatda guvoxlar ishtirokida notariusga topshiriladi. Bu shakl vasiyatnoma maxfiyligini saqlaydi va bu xaqda Frantsiya va Germaniya

qonunchiliklarida to'g'ridan-to'g'ri aytilgan (FK 969 va 1007-moddalari)(GFT 2232-paragrafi).¹

O'zbekistonda ham vasiyatnomaning yozma shaklda notarial tasdiqlangani va notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar mavjud. Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi lozim. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan notarius yoki qonunga muvofiq vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo'lganida vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmaganligining sabablari ko'rsatilgan holda vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin. Notarius va vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa shaxs, vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo'lsa, o'sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, otasonasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek, vasiyat qiluvchining qonun bo'yicha merosxo'rlari, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar, savodsizlar va vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar, yolg'on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolashi mumkin emas. Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoki uning so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan bo'lishi lozim. Uni imzolashdan oldin uning matnini notarius oldida to'liq o'qib chiqish lozim. Agar jismoniy kamchiligi yoki savodsizligi tufayli o'qiy olmasa, notarius tomonidan o'qib eshittiriladi, bu haqda vasiyatnomada tegishlicha qayd etilib, vasiyat qiluvchi vasiyatnomani shaxsan o'qiy olmaganligining sabablari ko'rsatiladi. Vasiyat qiluvchining xohishiga ko'ra vasiyatnoma notarius tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan (maxfiy vasiyatnoma) tasdiqlanadi. Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi ostida o'z qo'li bilan yozishi va imzolashi

¹ Xalqaro xususiy huquq. – T.: Iqtisod va huquq dunyosi nashriyot uyi. 2002. – B.371.

lozim. Vasiyatnoma ikki guvoh va notarius ishtirokida xatjildga solinib, xatjild elimlanishi lozim, guvohlar o'z familiyalari, ismlari, otalarining ismini va doimiy turar joylarini ko'rsatgan holda xatjildga imzo qo'yadilar. Guvohlar imzo qo'ygan xatjild guvohlar va notariusning ishtirokida boshqa xatjildga solinadi va bu xatjild ham elimlanadi, unga notarius tasdiqlash ustxatini yozib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1126-moddasida notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar belgilab berilgan¹.

Xorijiy davlatlarda yashayotgan O'zbekiston fuqarolarining vorislikka doir munsoabatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1197-moddasida qoida belgilangan². Xuddi shu asosda Konsullik joylashgan davlat ma'muriy organlari konsullik lavozimidagi shaxsni yuborgan davlat fuqarosi o'limining butun tafsilotlaridan konsulni xabardor qiladi va unga marxumning meros qolgan mulki, merosxo'rlari, merosdan mahrum etilgan kishilari va shuningdek, vasiyatnomaning mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Agar marhumning doimiy turar joyi bo'lmagan bo'lsa, unda konsullik lavozimidagi shaxs vakolatli davlatning qonunchiligiga muvofiq, marhumning hujjatlari, pullari va boshqa boyliklari bilan shug'ullanishi mumkin.

Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'limidan keyin qolgan mol-mulkning qo'riqlanishi choralarini ko'radi. Shunday hollarda "agar qoldirilgan mol-mulk to'laligicha yoxud qisman ayniydigan mahsulotlardan iborat bo'lsa va uni asrash juda qimmatga tushadigan bo'lsa, konsul bu mulkni sotish xamda pulini tegishli tomonga jo'natish huquqiga ega".³

Konsul meros qoladigan narsalarni qabul qilish va O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan merosxo'rlariga yetkazish huquqiga ega.

¹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. –Т.: Адолат. 1999. -В.509-511.

² Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. –Т.: Адолат. -В. 540.

³ Консульский Устав Республики Узбекистан. –Т.: Жяхон. 1997. –С.11

Biroq, mulkni olib chiqib ketish va u bilan bog'liq barcha tadbirlar konsullar joylashgan davlat qonunchiligiga rioya qilingan holda bajarilishi kerak. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining pul, boylik, qimmatbaxo qog'oz va huj-jatlarini asrash uchun qabul qilishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi vorislarga yetkazish uchun meros buyum — boyliklarni ham qabul qilish huquqiga ega.

Meros qoldiruvchining ko'chmas mulki masalasida mulk joylashgan makon qonunchiligiga qarab ish tutiladi. Chet el davlatining qonunchiligi asosida ochilgan vorislik huquqi O'zbekiston Respublikasida to'lik tan olinadi. Meros tarkibiga faqatgina ashyolargina kirmasdan, balki meros qoldiruvchining boshqa fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan bo'lgan har xil qonuniy talablari, masalan, meros qoldiruvchining olishi lozim bo'lgan lekin ololmay qolgan ish haqi, mualliflik haqiga bo'lgan huquqi va boshqalar ham kiradi. Shu bilan birga meros qoldiruvchining mulkiy majburiyatlari ham meros tarkibiga kiradi.

Demak, vorislik deganda mulkiy huquq va majburiyatlarning, ayrim hollarda nomulkiy huquq va majburiyatlarning ham vafot etgan shaxsdan qonunda yoki vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxslarga belgilangan shart va tartibda o'tishi tushuniladi. Fuqarolar bilan bir qatorda, yuridik shaxslar ham, shu jumladan, davlat va uning organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'la oladilar¹.

Konsulning merosga taalluqli vakolatlari davlatlar o'rtasida imzolangan ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalarda ham belgilangan. Masalan, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar tomonidan 1993 yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993 yil 6-maydagi Qarori bilan ratifikatsiya qilingan "Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. –Т.: Адолат 1999. -В.453-454.

bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyaning 49-moddasida diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalarining meros to'g'risidagi ishlar bo'yicha vakolatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra meros hamda merosga taalluqli nizolar bo'yicha agar axdlashuvchi davlat fuqarolari hozir bo'lmasalar yoki o'z vakillarini tayinlagan bo'lmasalar, tomonlarning diplomatik va konsullik muassasalari bir-birlarining tegishli muassasalariga maxsus ishonchnomasiz vakillik qilish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Demak, yuqorida zikr etilgan xalqaro hujjat qoidalari asosida xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavining 29-moddasida qayd etilgan, ya'ni fuqarolar manfaatlari bo'yicha konsulning ishonchnomasiz vakillik qilish vakolati fuqarolarimizning qaysi huquq sohasiga taalluqli ekanligi O'zbekiston Respublikasi bilan konsul faoliyat ko'rsatayotgan davlat o'rtasida imzolangan ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalarda belgilab beriladi.

2.3. Notarial harakatlar va konsullik hujjatlarini qonunlashtirish masalalari

Konsulik xizmatining vazifalaridan yana biri bo'lgan — notarial xarakatlarni amalga oshirishining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, O'zbekiston Respublikasining "Notariat haqida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik aktlari, shuningdek, fuqarolik, oila va jinoiy ishlar buyicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikki taraflama shartnomalar hamda konsullik konvensiyasi¹ tashkil etadi.

Konsullik Ustavining X-bobida, ya'ni 59-moddadan 68-moddagacha konsulning notarial harakatlarni amalga oshirishga oid huquq va majburiyatlari mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, notarial harakatlar O'zbekiston

¹ Xalqaro xususiy huquq. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi. 2002. –B.421-422.

Respublikasining konsullik muassasasida bajarilishi, ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur muassasadan boshqa joyda bajarilishi mumkinligi, zikr etilgan Konsullik Ustavining 59-moddasida o'z ifodasini topgan. "Notariat haqida"gi Qonunning 1-moddasidagi "Boshqa davlatlar hududida notarial harakatlarni O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining ushbu harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan mansabdor shaxslari amalga oshiradi"¹ degan qoidada ham konsulning notarial xarakatlarni amalga oshirish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid mas'uliyati mustahkamlab qo'yilgan.

Konsul, O'zbekiston Respublikasida joylashgan uylarning garovga qo'yilishi haqidagi shartnomalardan tashqari, shartnoma, vasiyatnoma, ishonchnoma va boshqa kelishuvlarni tasdiqlaydi, meros qolgan mol-mulkni asrash chora-tadbirlarini ko'radi; merosxo'rlik huquqi haqidagi guvohnomani beradi; oilaviy juftlarga umumiy mol-mulkning taqsimoti haqidagi guvohnomani beradi; hujjat nusxalari va ulardan ko'chirmalarning asliga to'g'riligini tasdiqlaydi; hujjatlardagi imzoning haqqoniyligiga guvohlik beradi; bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan hujjatning to'g'riligini tasdiqlaydi; fuqaroning muayyan bir joyda bo'lganligi dalilini tasdiqlaydi; fuqaroning fotosuratida tasvirlangan shaxs bilan aynan bir kishi ekanligini tasdiqlaydi; hujjatlar ko'rsatilgan vaqtni tasdiklaydi; pul va qimmatli qog'ozlarni omonatga oladi; ijro yozuvlarini amalga oshiradi; asrash uchun hujjatlarni qabul qiladi; ijro yuzasidan imzo chekadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek, konsul tomonidan amalga oshiriladigan boshqa notarial harakatlar ham ko'zda tutilgan. Biroq, konsul o'z nomidan o'ziga, turmush o'rtog'iga, uning va o'zining qarindosh-

¹ O'zbekistonda notariat. F.Hamidov, S.Tog'ayev.—T.: Adolat. 1998. — B. 5.

urug'lariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri notarial harakatlarni amalga oshira olmaydi. Agar hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq tuzilgan bo'lmasa, o'z mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi *davlat manfaatlariga* zarar etkazadigan bo'lsa, fuqarolarning or-nomuslariga raxna soladigan ma'lumotlarga ega bo'lsa, konsul bunday hujjatlarni notarial harakatlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilmaydi¹. Notarial xarakatlarni amalga oshirish rad etilgan shaxsga, uning iltimosiga ko'ra, hujjatlari rad etilgani sababini bayon etish, agar norozi bo'lsa, shikoyat qilish tartibini tushuntirishi kerak. Notarial harakatlar barcha zaruriy hujjatlar tayyor bo'lgan kunda, konsullik yig'imi to'lanib va harajatlar qoplangandan keyin amalga oshiriladi. Bunday harakatlarni amalga oshirish zarur bo'lgan chog'da konsul tomonidan hujjatlarni ekspertizaga jo'natish uchun qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlar talab qilinishi va shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ko'zda tutgan boshqa sabablarga binoan, harakat orqaga surilishi mumkin.

Konsul notarial harakatlarni amalga oshirish chog'ida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni amalga oshirilayotgan notarial xarakatlarning oqibatlaridan ogohlantirishi zarur. Chunki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi huquqiy ma'lumotga ega bo'lmaganligi yoki boshqa shu kabi holatlardan zarar ko'rmasligi kerak.

Notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan shikoyat berish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksining 273-moddasida² belgilangan bo'lib, unga ko'ra, "qarzdor notarius yoki konsul tomonidan berilgan ijro xati hususida umumiy tartibda da'vo taqdim etish yo'li bilan nizolashishi mumkin. Bajarilgan notarial harakat negizida manfaatdor shaxslar o'rtasida kelib chiqqan huquqqa doir nizo taalluqliligiga qarab, sud tomonidan ko'riladi" deyilgan.

¹ O'zbekistonda notariat. F.Hamidov, S. Tog'ayev.—T.: Adolat. 1998. — B. 9.

² Ўзбекистон Республикаси фуқаролик Процессуал Кодекси. —Т.Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги. 2001. —Б.101.

Vaholanki, Konsullik Ustavining 22-moddasi talablariga ko'ra, "Konsullik mansabdor shaxslari hamda konsullik muassasalari xodimlarining xatti-harakatlari ustidan qilingan shikoyatlar bo'ysunish tartibida ko'rib chiqiladi"¹ deyilgan.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksining 273-moddasi va Konsullik Ustavining 22-moddasi qoidalari o'rtasidagi tafovutga (kolliziyaga) barham berish lozim. Buning uchun FPKning 273-moddasining oltinchi xat boshiga quyidagi taxrirda o'zgartirish kiritilishi maqsadga muvofiqdir, ya'ni: "qarzdor notarius tomonidan berilgan ijro xati hususida umumiy tartibda da'vo taqdim etish yo'li bilan nizolashishi, bu boradagi konsulning xatti-harakati ustidan esa shikoyat qilishi mumkin".

Konsullik muassasasida ish qaysi tilda yuritilsa, notarial harakatlar hujjatchiligi ham o'sha tilda bajariladi. Agar notarial harakatlarni amalga oshirish maqsadida murojaat qilgan shaxs notarial harakatlar bajariladigan tilni bilmasa, unda rasmiylashtiriladigan hujjatlar matnlarini konsul yoki konsulga tanish bo'lgan tarjimon tomonidan tarjima qilinishi lozim.

Notarial harakatlarni bajargan va shuningdek, xizmat vazifasini bajarish vaqtida bajarilgan notarial harakatlardan habardor bo'lgan konsullik lavozimidagi shaxslar xattoki, ular mehnat faoliyatlarini tugatganlaridan keyin ham o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etishi man etiladi. Notarial harakatlarni amalga oshirishda bevosita xorijiy davlatlardagi O'zbekiston konsullik muassasalari mas'ul bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi konsullik boshqarmasi ham o'z vakolati doirasida notarial harakatlarga taalluqli hujjatlar bilan bog'lik vazifalarni bajaradi.

1995-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining

¹ Консульский Устав Республики Узбекистан. –Т.: Жяхон. 1997. –С.8

"Konsullik boshqarmasi to'g'risida"gi Nizom¹da belgilanganidek, Konsullik boshqarmasi "...notariat bilan bog'liq bo'lgan konsullik masalalarini ham hal qiladi"². Xususan bu vazifani mazkur Boshqarma tarkibidagi Fuqarolik, notariat va huquqiy yordam bo'limi amalga oshiradi.

Konsulning xalqaro xususiy huquq predmetiga oid o'ta muhim vazifalaridan yana biri-bu hujjatlarni legalizatsiya (qonuniylashtirish) qilishdir. Konsullik legalizatsiya - (lotincha legalis - qonuniy) - hujjatlar va aktlardagi imzolarning haqiqiylikini va ularni konsul borgan davlat qonunlariga muvofiqlikini aniqlash hamda shaxodatlashdan iboratdir³.

O'zbekiston Konsullik muassasalari va Tashqi Ishlar Vazirligi Konsullik boshqarmasining hujjatlarni legalizatsiyalashdagi vakolatlarining huquqiy asosini bu boradagi O'zbekiston uchun harakatda bo'lgan xalqaro shartnomalar, O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining Nizomi⁴ hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri tomonidan tasdiqlangan konsullik legalizatsiya haqidagi Yo'riqnoma⁵ tashkil etadi.

Ushbu Yo'riqnomaning oltita banddan iborat birinchi bobida konsullik legalizatsiyaning mazmuni, vazifalari va xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, konsullik legalizatsiya hujjatlardagi va aktlardagi imzolarning haqiqiylikini va ularni borgan davlatining qonunlariga muvofiqlikini aniqlaydi hamda shaxodatlaydi.

¹ Международные нормы и консульская служба Республики Узбекистан // Руководство для работников консульских учреждений, - Т, Жахон, 1998, -С. 97

² Международные нормы и консульская служба Республики Узбекистан // Руководство для работников консульских учреждений, - Т, Жахон, 1998, -С. 96-98

³ Дипломатический словарь. -М.:Наука.1985.Т.II. -С.81

⁴ Qarang. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1994. №140

⁵ Международные нормы и консульская служба Республики Узбекистан // Руководство для работников консульских учреждений, - Т, Жахон, 1998, -С. 75.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari xorijiy davlatlarda hujjatlarni legalizatsiya qilish vakolatiga ega bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik boshqarmasi respublikamiz hududida ushbu vazifani bajaradilar. O'zbekiston Konsullik Ustavining XI bobida hujjatlar va aktlarni legalizatsiyasi konsul tomonidan amalga oshirilishi qoida qilib belgilangan bo'lsada, biroq konsul topshirig'iga ko'ra ushbu vazifani boshqa mansabdor shaxs ham bajarishi mumkin.

Konsul o'z konsullik okrugidagi mahalliy ma'murlarning vakillari ishtirokida tuzilgan yoki ana shu ma'murlardan kelgan hujjatlar va aktlarni qonunlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining organlari ana shunday hujjatlar va aktlarni, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O'zbekiston Respublikasi yoki konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, konsul tomonidan qonunlashtirilgandan keyingina, uni qarab chiqish uchun qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan yoki o'z mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar etkazuvchi yoxud fuqarolarning or-nomus va shaxsiyatlariga raxna soluvchi hujjatlar qonuniylashtirilmaydi. Pasportlar, partiyalarga taalluqlilik to'g'risidagi hujjatlar, mehnat daftarchalari, harbiy biletlar, respublikada olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning asl nusxalari, haydovchilik guvoxnomasi, diniy qarashlarga taalluqli hujjatlarning asli va nusxalari hamda fuqarolik oborotidan chiqarilgan boshqa mulklarga taalluqli hujjatlar ham legalizatsiya qilinmaydi¹.

Yo'riqnomaning ikkinchi bobi ettita baddan iborat bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining hujjatlar va aktlarni legalizatsiyalash tartibi belgilab berilgan. Unga ko'ra, konsul hujjatlar va aktlarni legalizatsiyalash uchun o'z konsullik okrugidagi tashkilot va

muassasalardan chiqib keladigan hujjatlar va aktlarni tasdiqlaydigan mansabdor shaxslarning imzo va tamg'asi namunasiga ega bo'lishi kerak.

Agar konsullik joylashgan davlat yoxud uning idoralari tomonidan chiqib kelgan hujjatni qonuniylashtirish paytida konsulda ushbu hujjatlarning mazkur davlat qonunchiligiga muvofiqligi haqida biror-bir shubxa-gumon paydo bo'lsa, u bu haqda rasmiy sharh so'rab, o'sha davlatning vakolatli idoralariga murojat etadi. Hujjatlarni O'zbekistondan talab qilib olish tartibi asosida konsulga O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligida legallashtirilmagan hujjat va aktlar kelib tushsa va konsulxona joylashgan davlat qonuni bo'yicha bunday hujjatlarni legalizatsiyalash talab qilinsa, konsulning o'zi zikr etilgan hujjatlar va aktlarni legallashtirib, ularni o'zi faoliyat ko'rsatayotgan davlatdagi tashkilot va muassasa yoki boshqa manfaatdor idoraga beradi.

Agar konsulga fuqarolar, tashkilot va muassasalardan O'zbekiston hududida tuzilgan hujjatlar va aktlar alohida tartibda kelib tushgan va O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligida legallashtirilmagan bo'lsa, unda konsul bunday hujjatlar va aktlarning haqiqiylikini aniqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligiga yuboradi. Ijobiy javob olinganda, konsul ushbu hujjat va aktlarni umumiy tartibda legallashtiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, konsul zaruriy hollarda uchinchi bir davlat hududida ishlatilishi zarur bo'lgan hujjatlarni legallashtiradi. Bunday hujjat yoki akt uchinchi davlat hududida haqqoniy deb tan olinishi uchun u uchinchi davlatning O'zbekiston Respublikasi konsulxonasi joylashgan davlatdagi konsulxonasi tomonidan legalizatsiya qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligining Konsullik boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining imzosini tasdiqlaydi, Adliya vazirligi birinchi davlat notarial idorasining mas'ul

xodimining imzosini tasdiqlaydi. Ushbu tartib ichki namunadagi FXDYo hujjatlari va chet elga yuboriladigan boshqa hujjatlarga tatbiq qilinadi.

Yo'riqnomaning to'rtinchi bobida legallashtiriladigan hujjatlarning tayyorlanish sifati va legalizatsiya yozuvining tartibi va ushbu harakat uchun olinadigan konsullik yig'imi to'g'risidagi qoidalar ko'rsatilgan. Ushbu Yo'riqnomada legalizatsiya uchun berilgan hujjat va aktlarni ko'rib chiqish muddati ko'rsatilmagan.

Yukqorida zikr etilgan Yo'riqnoma talablari asosida hujjatlar va aktlarni legalizatsiya qilish tartibida ishtirok etuvchi idoralarning quyi bo'g'ini bu birinchi notarial idoradir.

Ammo ayrim MDH davlatlarining bu boradagi tajribasi turlichadir. Masalan, Ukrainada mustaqillikgacha berilgan hujjatlar legalizatsiyasi notarius, Adliya vazirligi va Tashqi Ishlar Vazirligi orqali amalga oshirilsa, mustakillikdan keyin berilgan hujjatlar bo'yicha esa, hujjat berilgan joylardagi Adliya vazirligining hududiy boshqarmalariga yuboriladi. Demak, ularda legalizatsiya qilish tartibida ishtirok etuvchi quyi bo'g'in bu joylardagi Adliya vazirligining hududiy boshqarmalaridir. Ushbu boshqarmalar hujjat bergan tashkilot mansabdor shaxsining imzosini tamg'a bilan tasdiqlab, Tashqi Ishlar Vazirligiga yuboradilar. Adliya vazirligi hududiy boshqarmasi mansabdor shaxsining imzosi Tashqi Ishlar Vazirligi tamg'asi bilan tasdiqlanadi va so'ngra ushbu hujjatning tarjimasi ta'minlanadi. Sudlanmaganlik hamda tibbiyot ma'lumotnomalarining xorijiy tilda tarjimasi ta'minlanib, notarius, Adliya vazirligi va Tashqi Ishlar Vazirligida legalizatsiya qilinmasdan, manfaatdor xorijiy davlatning vakolatxona va konsullik muassasasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari bilan 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolagan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil-6 maydagi Qarori bilan ratifikatsiya qilingan

"Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Konvensiyaning 13-moddasiga muvofiq, ushbu xalqaro shartnoma ishtirokchi davlatlarning birortasining hududida o'sha davlat vakolatli idorasi tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar ikkinchi bir ishtirokchi davlatning hududida hech qanday qo'shimcha legalizatsiyasiz rasmiy hujjat sifatida qabul qilinadi.

1961-yil 5-oktyabrda Gaagada tuzilgan "Chet el rasmiy hujjatlarini legalizatsiya qilishni bekor qiluvchi" Konvensiya ham Konsullik legalizatsiyasiga taalluqli xalqaro hujjat bo'lib hisoblanadi. Ushbu xalqaro hujjat o'n beshta moddadan iborat, unda 36 davlat, shu jumladan, AQSH, Fransiya, Angliya, GFR ishtirok etadi. Legalizatsiyani rasmiylashtirish bo'yicha ketma-ket bajariladigan bir necha operatsiyalar o'rniga yagona formal amalning bajarilishi, ya'ni hujjatni bergan davlat organlari tomonidan hujjatga uni tasdiqlovchi o'ziga xos yozuv -apostil qo'yilishi zikr etilgan Konvensiyaning mazmunini tashkil etadi¹.

Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun apostilning shakli yagonadir. Apostil Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura yoki Arxiv idorasi tomonidan hujjatning o'ziga yoki alohida varaqqa qo'yiladi va hujjat bilan birlashtirib qo'yiladi.² Apostilning qaysi idora tomonidan qo'yilishini a'zo davlatlarning o'zlari ichki qonunchilik aktlari bilan belgalaydilar. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Shtatlarning Kotiblari hujjat va aktlarga apostil qo'yish vakolatiga ega bo'lsa, Belarus Respublikasida bu vakolat Adliya vazirligi va Tashqi Ishlar Vazirligining Konsullik boshqarmasiga yuklatilgan. Rossiya Federatsiyasida esa zikr etilgan vakolat Adliya va arxivning joylardagi organlari hamda Bosh prokuraturaning ishlar

¹ Ўзбекистон консуллик хизмати (фуқароларни халқаро хусусий ҳуқуқий манфаатларининг ҳимояланиши: назарий ва амалий муаммолар). Расулов Ш.В. Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси. - Т. Адолат, 2008. Б.99.

² Xalqaro xususiy huquq. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi. 2002. –B.424-425.

boshqarmasiga yuklatilgan. Masalan, AQSHga ishga boradigan Rossiya fuqarosining diplomini legalizatsiya qilish uchun diplom va baholar ilovasining asl nusxasidan notarial shaxodatlangan texnik nusxalar olinadi, ularning inglizcha tarjimasi ta'minlanib, ushbu hujjatning orqasiga apostil qo'yiladi.

Konvensiya qoidalari diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalarida tuzilgan hujjatlarga yoki tijorat hamda bojxona operatsiyalariga taalluqli ma'muriy hujjatlarga qo'llanilmaydi. Konvensiya qoidalariga ko'ra, apostil hujjatning o'ziga yoki hujjatga biriktirib qo'yiladigan alohida varaqqa qo'yiladi. Apostilning namunasi ushbu xalqaro hujjatga ilova qilingan. Apostil uni qo'yayotgan davlatning rasmiy tilida yoki unda mavjud bo'lgan bandlarda ko'rsatilganidek, ikkinchi tilda ham rasmiylashtirilishi mumkin. Apostil imzo qo'yadigan shaxs yoki har qanday hujjatni taqdim etuvchining iltimosiga ko'ra qo'yilishi mumkin. Apostilga qo'yilgan imzo va tamg'a hech qanday qo'shimcha shaxodatlashni talab qilmaydi. Apostil qo'yish vakolatiga ega organlarni har bir davlat o'zi belgilaydi. Bu haqda mazkur Konvensiyaga qo'shilish to'g'risidagi ratifikatsiya yorlig'ini topshirayotgan paytda Niderlandiya Tashqi Ishlar Vazirligiga ma'lum qiladi.

Apostil qo'yish vakolatiga ega bo'lgan organlar alohida kitob yoki kartoteka joriy qilib, unda apostilni ro'yxatga olishlari kerak. Ushbu kitob yoki kartotekada apostilning tartib raqami va qo'yilgan muddati hamda rasmiy hujjatni imzolagan shaxsning familiyasi va hujjatning qanday holatdaligi ya'ni sifati, imzolanmagan hujjatlar bo'yicha tamg'ani qo'ygan organning nomi yoziladi. Ushbu Konvensiyaga a'zo bo'lgan har bir davlat uning mazmuniga taalluqli bo'lgan hujjatlarni o'zlarining diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalari tomonidan legalizatsiya qilinmasligining zaruriy choralarini ko'radilar. Ushbu xalqaro hujjat besh yil muddatda tuzilgan bo'lib, denonsatsiya qilinmasa, yana keyingi yillarga ham davom etaveradi.

Niderlandiya Tashqi Ishlar Vazirligi besh yil muddat tuo'lishiga olti oy qolganda denonsatsiya to'g'risida a'zo davlatlarga ma'lum qilib turadi. O'zbekiston Respublikasi yuqorida zikr etilgan Konvensiyaga qo'shilmagan. Ammo zikr etilgan Konvensiyaga a'zo davlatlar bilan O'zbekiston o'rtasidagi turli sohalarga oid o'zaro manfaatli munosabatlar tahlil etilib, so'ngra mazkur xalkaro hujjatga qo'shilish masalasi hal etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir davlatning amaldagi ichki qonunlari va xalqaro normalar talablariga binoan legalizatsiya qilinishi yoki apostil qo'yilishi kerak bo'lgan hujjatlar diplomatik vakolatxonaning konsullik bo'limida yoki konsullik muassasalarida legalizatsiya qilinmasa yoki ularga apostil qo'yilmagan bo'lsa, bunday hujjatlar xorijiy davlatlarda yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

2.4. Javobgarlikka tortilganlarga konsulning ko'rsatadigan huquqiy yordami

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik qilishni kafolatlaydi. Shunga muvofiq davlatimiz o'z hududida fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini huquq-tartibot organlari orqali himoya qilsa, chet elda bu vazifani diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalar yordamida amalga oshiradi. Biz yuqorida oddiy fuqarolarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam va xizmatlar bilan tanishib chiqdik. Bu fuqarolar bilan bir qatorda diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalari qonun doirasidan chetga chiqqan yoki qonun buzarlilikda ayblanayotgan fuqarolarga ham huquqiy yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Konsullik Ustaviga muvofiq diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalari chet elda jinoiy javobgarlikda

ayblanib hibsga olingan va sudlanganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Chet elda jinoyat sodir etglikda gumon qilinib hibsga olingan va sudlangan Oz'bekiston Respublikasi fuqarolari, agar shu davlat bilan O'zbekiston o'rtasida boshqa o'zaro shartnoma mavjud bo'lmasa, o'sha davlat qonunchiligiga ko'ra sud qilinadi hamda jazolanadi.

Chet elda jinoyat sodir etglikda gumon qilinib hibsga olingan yoki ushlab turilgan yoxud uning erkinligini cheklovchi boshqa choralarga tortilgan yoki ozodlikdan mahrum etish tarzida jazoni o'tayotgan, shuningdek sudlov yoki ma'muriy ta'sir choralarining boshqa turlariga tortilgan O'zbekisto Respublikasi fuqarosiga nisbatan konsulxona joylashgan davlat qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalar qoidalari haqqoniy qo'llanilishi kerak. Bu qoidalarning to'g'ri tadbiq etilishini konsul kuzatib borishi shart.

Ozbekiston Respublikasi Konsullik Ustavining 38-moddasiga muvofiq konsul, agar konsulxona joylashgan davlat qonunlarida man etilgan bo'lmasa, xalqaro shartnomalarga rioya etilgan holda O'zbekiston Respublikasi tergov organlari va sudlarining O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga taaluqli topshiriqlarini bajaradi. Chet elda jinoyat sodir etganlikda ayblanib fuqaroning hibsga olinganligi to'g'risida xabar ba'zi davlarda shu davlat tomonidan ushalgan fuqaroning davlatiga tegishli elchixonona yoki konsullik muassasalariga yetkaziladi, ayrim davlatlarda esa bu to'grisidagi xabar yetkazilmasligi ham mumkin. Bunday vaziyatda fuqaroning o'zi murojat etishi kerak bo'ladi.

Mazkur konsullik muassasasiga qamoqda, qamoq ostida bo'lgan yoki ushlangan shaxs tomonidan yo'naltirilgan barcha xabarlar xuddi shuningdek ushbu organlar tomonidan darhol konsullik muassasasiga beriladi. Konsullik mansabdor shaxslari qamoq ostida bo'lgan yoki ushlangan shaxsning oldiga u

bilan suhbatlashish uchun borish huquqiga ega, shuningdek u bilan yozishma olib borish hamda uning uchun yuridik vakillikni ta'minlash uchun choralarni ko'rish huquqiga ega. Ular shuningdek ularning okrugida sud qarorini ijro etish maqsadida qamoq ostida bo'lgan yoki ushlangan o'zi ifoda etgan davlatning har qanday fuqarosining oldiga borish huquqiga ega. Konsul ozodlikdan mahrum etish joylaridagi O'zbekiston respublikasi fuqrolarining saqlab turish shart-sharoitlarini aniqlashi shart. Konsul bunday fuqarolar gigiena va sanitariya talablariga javob beradigan sharoitlarda saqlanishi hamda ularga nisbatan shafqatsiz va inson qadr-qimmatini tahqirlovchi muomala qilanmasligini kuzatishi shart¹.

¹ Сборник международных документов и нормативно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбидинов. Под ред. Хамедов И.А. – М.: Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г. С.119. Закон от 29 августа 1996 г. №261-I «Об утверждении Консульского устава Республики Узбекистан»

X U L O S A

Konsullik huquqi doirasida inson huquqlarini ta'minlash mohiyati shundan iboratki, davlat o'zining tashqi aloqalar organlari orqali o'zga mamlakat tomonidan ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari buzilgan taqdirda himoya qilishning xalqaro huquq normalari taqiqlanmagan barcha usullarni ishga solishga harakat qiladi. Konsullik huquqi doirasida inson huquqlarini himoya qilish instituti xalqaro munosabatlarga azaldan ma'lum. XVIII asrdayoq olimlar tomonidan agarda o'zga mamlakat tomonidan fuqarolarning huquqlari buzilganda manfaatdor davlat hatto urush e'lon qilish mumkinligi qayd etilgan¹. E.D Vaterning qayd etishicha: “ xafa qilingan fuqaroning suveren davlati aybdor davlatdan qasos olishi shartdir, iloji boricha jabr ko'rgan fuqaroning zararini qoplashi shart ”².

Xalqaro sudlov doimiy palatasi tomonidan davlatlarning o'z fuqarolarini chet elda himoya qilish huquqini inson huquqlarini himoya qilish xalqaro huquq tamoyilining jihati sifatida e'tirof etadi. Bunday huquq Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro sudi tomonidan ham tan olingan³.

Konsullik huquqi doirasida inson huquqlarini ta'minlash davlatning vazifasi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiya (5-modda)da qayd etilgan. Jumladan diplomatik va konsullik idoralarining asosiy vazifalari sifatida qabul qiluvchi davlatda yuboruvchi davlat va uning fuqarolarini xalqaro huquq normalari tomonidan belgilangan tartibda himoya qilish belgilangan.

Mazkur bitiruv-malakaviy ishida chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishda konsullik xizmatining tutgan o'rnini konsullik huquqi sohasidagi turli manbalar va amaliyotga tayangan holda har tomonlama o'rganishga harakat qilindi. Alohida e'tibor konsullik

¹ Selections from Three Works. Carnegie, 1944. P. 817.

² Право народов. Де Ваттель Э. М., 1960. С. 254-255.

³ Решение по делу Мавромматиса// PCJ. Reports, 1924. Ser. A. 2. P. 12.

muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi va ularning xodimlari maqomi, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi xalqaro-huquqiy normalar majmui hisoblangan konsullik huquqining hozirgi kundagi ahamiyati hamda dolzarb masalalari O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari faoliyati doirasida tadqiq etishga berildi. Shu bilan birga chet eldagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qonuniy manfaatlari va huquqini ta'minlashda konsullik muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan harakatlar ochib berildi.

Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarga kelindi:

Darhaqiqat, inson huquqlariga oid xalqaro mexanizmlar birmuncha rivojlangan bo'lsada, ularning salohiyati inson huquqlarini har tomonlama ta'minlashga imkoniyat bermaydi. Aynan shu sababli, chet elda o'z fuqarolarning huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatni davlatlar amaliyoti ham tasdiqlamoqda. Konsullik huquqi doirasida inson huquqlarining himoya qilinishi xalqaro huquq tomonidan belgilangan inson huquqlari xalqaro standartlarga davlatlar tomonidan rioya etish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

- chet elda O'zbekiston fuqarolarni himoya qilish uchun fuqarolarimiz soni ko'p bo'lgan xorij davlatlarida diplomatik vakolatxona va konsulxonalar sonini ko'paytirmoq kerak. Masalan, Latviyadagi elchixonaning konsullik bo'limi Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiyadagi O'zbekiston fuqarolariga javobgar yoki Belgiyadagi elchixonasi Niderlandiya, Lyuksemburgdagi O'zbekiston fuqarolariga konsullik xizmatini amalga oshiradi. Biroq, hozirgi paytda ushbu mamlakatlarning har birida O'zbekiston fuqarolarining soni kundan-kunga oshib bormoqda. Ushbu fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish va konsullik xizmatini amalga oshirish qiyinlashmoqda;

- fuqarolarimiz soni ko'p bo'lgan xorij davlatlarida diplomatik vakolatxona va konsulxonalar xodimlari sonini ko'paytirish. Masalan, Rossiyada, Qozog'istonda, AQSHda, Koreyada, Germaniyada, Yaponiyada;

- chet eldagi O'zbekiston konsulxonalarning o'zi O'zbekiston fuqarolariga tezkor ravishda passport qilib berish masalasini ko'rib chiqsa maqsadga muvofiq bo'lardi;

- chet elga ketayotgan O'zbekiston fuqarolari tomonidan qonunbuzarlikni kamaytirish maqsadida ushbu fuqarolarga ketayotgan mamlakatning eng muhim qonunlari to'g'risida ma'lumot berilishi lozim. Ushbu ma'lumotlarni berish uchun Ichki Ishlar Vazirligi, Tashqi Ishlar Vazirligi, Migratsiya agentligi, Adliya Vazirligining malakali xodimlari jalb qilingan axborot markazini yaratish lozim;

- bundan tashqari bu muammoni yechish uchun Ichki Ishlar Vazirligining Xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasiga fuqarolar chet elga chiqish sertifikatini olish uchun ruxsat so'rab murojaat etsalar ular bilan qisqacha suhbat o'tkazsa;

- transport vositalari, ya'ni samolyot va poezdlarda ketayotgan fuqarolarga ketayotgan mamlakatning eng asosiy qonunlari o'z ifodasini topgan broshyura sifatida ma'lumot-axborot berilsa;

- sayohatga ketgan fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni sayyohlik agentliklari o'z zimmasiga olsa;

- tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan yuborilgan O'zbekiston fuqarolarining ishchi migrant sifatida o'zga mamlakatda faoliyat ko'rsatish ahvoli bilan shu agentlik shug'ullansa, ya'ni agentlikdan maxsus xodim tayinlanib konsulxonadagi xodimlarga biriktirilsa va u qonuniy ravishda ishchi migrant sifatida ishlayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilsa;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rah'bariy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. –Т.: Ўзбекистон, 1996. - 349 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.- 326-б.
3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
5. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-кудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. –Т.: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005.-448 б.
7. Каримов И.А. Мамлкатимизда демократик ислохотларни янада уқурлаштириш ва фуқаролик жамиятни ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябр. Тошкент: «Ўзбекистон», 2010. 3-б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: «Ўзбекистон», 2011. 440 б.
9. И.Каримовнинг 2011 йил асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил ватанимиз тараққиёти Янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Т.: Oqituvchi, НМИУ, 2012 б.272.

2. Normativ-h'ujuqiy h'ujjatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т. Ўзбекистон. 2011.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. – Т. Адолат. 1996.
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Процессуал кодекси. – Т. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. 2001.
4. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. – Т. Адолат. 1998.
5. Закон от 29 августа 1996 г. №261-I «Об утверждении Консульского устава Республики Узбекистан».
6. Закон от 02.07.1992г. № 632-XII «О гражданстве Республики Узбекистан».
7. Закон от 13.12.2002г. №446-II «Об обращениях граждан» (новая редакция).
8. Закон от 26.12.1996г. №343-I «О нотариате».
9. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-500 от 20.11.1992г. «О порядке рассмотрения вопросов, связанных с гражданством Республики Узбекистан».
10. Приложение № 1 к постановлению Кабинета Министров от 12 апреля 1999г. № 171 «Правила регистрации актов гражданского состояния».
11. Инструкция рег.№313 от 12.03.1997г. «О консульской легализации».
12. Инструкция №348 от 04.06.1997г. «О порядке регистрации и учета граждан Республике Узбекистан за границей».

13. Инструкция №448 от 17.06.1998г. «О порядке выдачи сертификата на возвращение в Республику Узбекистан».

14. Приложение к совместному приказу МВД и МИД РУ №210/1236 от 15.10.1998г. «Об утверждении порядка выдачи справок о непринадлежности к гражданству Республики Узбекистан».

15. Инструкция №726 от 11.05.1999г. «О порядке выдачи и обмена паспортов гражданам Республики Узбекистан дипломатическими представительствами и консульскими учреждениями Республики Узбекистан за рубежом».

16. Постановление Министерства иностранных дел Республики Узбекистан и Министерства финансов Республики Узбекистан № 1273 от 18.09.2003г. «Об утверждении положения о порядке взимания сборов на возмещение фактических расходов, связанных с выполнением консульских действий, и использования поступивших средств».

Xalqaro hujjatlar

1. Венская конвенция «О дипломатических сношениях» от 18 апреля 1961г.

2. Венская конвенция «О консульских сношениях» от 24 апреля 1963г.

3. Конвенция между странами-участниками СНГ «О правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам». Минск, 22 января 1993г.

4. Гаагская конвенция по вопросам гражданского процесса от 1 марта 1954г. (Конвенция ратифицирована Постановлением Олий Мажлис Республики Узбекистан № 183-I от 22.12.1995 года).

5. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги ва АҚШ ўртасидаги Паспортнинг амал қилиш муддатлари тўрисидаги 2001 йил 15 январдаги Ноталар алмашуви.

6. Ўзбекистон Республикаси ва АҚШ ўртасидаги консуллик масалалари бўйича 2001 йил 9 мартдаги №7 Қўшма Коммюникеси

3. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar hamda monografiyalar

1. И.Каримов, З.Нарзиева, Ю.Кутбиддинов. Сборник международных документов и нормотивно правовых актов Республики Узбекистан по консульским вопросам. Под ред. И.А.Хамедов. Министерство иностранных дел, консульское управление и университет мировой экономики и дипломатии. 2010 г.

2. Расулов Ш.В. Ўзбекистон консуллик хизмати (фуқароларни халқаро хусусий ҳуқуқий манфаатларининг ҳимояланиши: назарий ва амалий муаммолар). Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси. - Т. Адолат, 2008.

3. Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. –Т.,Адолат, 2001. -360с.

4. Маматкулов А. Халқаро ҳуқуқ. –Т.,Адолат, 1997.

5. Международное публичное право: Учебник. Отв. ред. Х.Т. Адилкариев. - Т.,“Zarkalam”. 2004.552 с.

6. Бекашев К.А. Международное публичное право. –М., Издательство Проспект, 2004. -928с.

7. Юлдашева Г. Дипломатическое и консульское право. Учебное пособие. – Т., ТДЮИ, 2008. 180 с.

8. Блищенко И.П. Дипломатическое право. – М., Высшая школа, 1990.-616с.

9. Курс международного права. Гл. ред. Б. Н. Кудрявцев, Зам. гл. ред. В. С. Верещетин, Г. И. Тункин: В 7 т. М., 1989-1993.

10. Лукашук И. И. Международное право. Особенная часть: Учебник. -М., Издательство БЕК, 2001. – 481 с.

11. Международное право. Учебник / Отв. ред. В. И. Кузнецов. -М., Норма, 2001. -483с.

12. Международное право. Учебник для вузов / Отв. ред. Г. В. Игнатенко, О. И. Тиунов. 3-е изд. М., Норма, 2003. -534с.

13. Саидова Л. Правовые основы дипломатической деятельности Республики Узбекистан. – Т., НЦПЧ, 2001. -192с.

14. Саидова Л. Источники современного дипломатического права: международные договоры и национальное законодательство Республики Узбекистан. – Ташкент, Адолат, 2001.- 304с.

15. Тузмухамедов Р.А., Р.Т.Хахимов. Основы международного права. Учебное пособие. - Т., "Мир экономики и права", 1998. - 128 с.

16. Саидов А.Х. Международное право в схемах и определениях. Учебное пособие /Отв, ред, И.И.Лукашук. –М., Юристъ, 2004. -349с..

17. Консульское право. Ю. М. Смирнов. Практика и применение (М., «НИМШ2001 г.)

18. Консульские отношения и консульское право. О.В.Плотникова. Москва, 1998г

19. Консульская служба. Г. Э. Лапин Учебное пособие. «Международные отношения». 2002

20. Консульское право и консульская практика. Академия государственного и общественного строительства при Президенте Республики Узбекистан. С.М.Миркасымов, М.А. Рахимова, Петер Юза. Учебное пособие. 2004г.

21. Соловьев Э.Я. Основы дипломатического права. Учебное пособие. – М., Ось-89, 2005.-170с.

22. Xalqaro xususiy huquq. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashiriyot uyi. 2002.

23. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000

24. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat. 1999.

25. F.Hamidov, S.Tog'ayev. O'zbekistonda notariat. —T.: Adolat. 1998.

26. Дипломатический словарь. –М.:Наук.1985.Т.II.

27. O'zbekiston Respublikasi Tashqi islar vazirligi materiallari. 2010 y

28. Международные нормы и консульская служба Республики Узбекистан // Руководство для работников консульских учреждений, - Т, Жахон,1998, -С. 97

Xorijiy tillardagi adabiyotlar

1. Selections from Three Works. Carnegie, 1944.

2. Де Ваттель Э. Право народов. М., 1960.

3. Решение по делу Мавромматиса// PCJ. Reports, 1924.

Internet saytlari

1. http://mfa.uz/rus/konsulskie_voprosi/

2. www.gov.uz

3. www.lex.uz

4. www.un.org